масалаларини ечишда эҳтимоллар назарияси, математик-статистиканинг усулларига тўла - тўқис риоя қилинмайди. Шу туфайли бўлса керак, собиқ иттифоқ пайтида ишлаб чиқилган ва ҳозирда бизнинг Республикамизда ҳам амал қилинаётган «Қурилиш меъёрлари ва қоидалари» усулларини айрим мутахассислар «Ярим эҳтимоллик усуллари»[2] деб баҳолаганлари бежиз эмас.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Таҷрибалар билан боғлиқ бўлган грунтларнинг кўрсаткичларини аниқлашда синовлар сони ва унинг ваколатлилигини таъминлаш, алоҳида ўрин тутди.

Ҳозиргача, аксарият ҳолларда синовлар сони белгиланганда грунтларнинг у ёки бу кўрсаткичлари бўйича вариация (ўзгарувчанлик) коэффиценти ҳисобга олинмайди. Ҳатто, грунтларнинг у ёки бу хусусиятини якуний натижага таъсирини «тоза ҳолда» аниқлаш учун, «бир жинсли» таҷриба майдони танланади, ёки шундай шароит ташкил этилади. Табиий грунтларнинг хусусиятлари ўта ўзгарувчан эканлигига етарлича эътибор берилмайди ёки ҳисобга олинмайди.

Ҳозирда синовлар сони, аниқроғи уларнинг ваколатлилигини таъминловчи сонини аниқлашнинг кўпгина усули мавжуд бўлиб, уларнинг муаллифлари ушбу масалага турли хил нуқтаи назардан ёндошадилар. Биринчилар қаторида ушбу масала билан Н.Н. Маслов шуғулланди [7]. Унинг таклифига кўра, грунтнинг бирор бир хусусиятини таҷриба орқали аниқлаб бориш билан, унинг ўртача қиймати ҳисоблаб борилади. Қачонки ўртача қиймат синовлар сонига боғлиқ бўлмай қолиши билан, синов тўхтатилади.

Ушбу усулнинг А.А.Каган [3] томонидан ўтказилган таҳлилига асосланиб таъкидлаш мумкинки, турғунлашган грунт хусусиятини ўртача қийматига эришиши учун 40 дан 60 гача синовлар талаб этилар экан. Ушбу усул ўзининг ўта соддалиги билан эътиборни тортсада, шунча синов ўтказилишига қарамай, қай даражада аниқликка эришилганлиги ноаниқлигича қолаверади.

Н.Н. Маслов усулини мукамаллаштирган Н.И. Иванова [], келиб чиқиши бир хил ва бир хил турга мансуб бўлган грунтларнинг турли кўрсаткичлари учун 60 дан 374 тага бўлган синовлар сонини (танлов сонини) тўплади. Уларни ўртача қийматларини ҳамда вариация (ўзгарувчанлик) коэффицентини ҳисоблаб, тақсимот қонуниятини аниқлади. Сўнг танлов сонини икки ҳисса қисқартириб, юқоридаги амалларни такрорлади. Ушбу амалларни такрорлаш, танлов сони бештага тушгунча амалга оширилди. Синовларнинг самарали (рационал) сони деб

шундайи қабул қилиндики, биринчидан, аниқланаётгани кўрсаткичнинг тақсимооти нормал тақсимоотдан чекланмасин, иккинчидан вариация коэффицентини рухсат этилган чегарадан чиқмасин.

Н.И. Иванова таклиф этган усулга биноан Н.В. Коломенский ўтказган тадқиқотлар шуларни кўрсатдики, самарали синовлар сони грунтларнинг табиий ва пластиклик чегарасидаги намликлари ҳамда солиштирма оғирлиги учун 30 тадан ошмай, айрим ҳолларда 10 тагача камаяди. Мустаҳкамлик ва деформация кўрсаткичлари учун эса, 37 тагача (вариация коэффицентини бўйича), 18 та (тақсимоот бўйича) синовлар сони зарур бўлади [4].

Худди шунга ўхшаш, ваколатлилигини таъминлаш учун синовлар (кузатувлар) сонини аниқлашга бағишланган илмий тадқиқотларда тақсимоот қонуниятини, ишончлилиқ даражасини, муҳандислик қидирув ишлари босқичини, лойиҳалаштирилаётган бино ёки иншоотнинг жавобгарлик даражасини турли усуллар билан ҳисобга олиш таклиф этилади [3,5 ва бошқ].

Фикримизча синовлар (кузатувлар) сонини ваколатлилигини таъминлаш учун, грунт кўрсаткичининг ўзгарувчанлик (вариация) коэффицентини ҳисобга олиш кифоя килади. Бунинг учун эса А.К.Метропольский [8] таклиф этган вариация коэффицентининг синовлар сонидан боғлиқлик графигидан фойдаланилади. Синовлар сонини ваколатлилиги таъминлангандан сўнг, бажарилажак эҳтимолий - статистик таҳлил жараёнининг узлуксиз қисми бўлмиш кўрсаткичларнинг ҳисобий қийматларини аниқлашда - ишончлилиқ чегаралари, бино ёки иншоотнинг жавобгарлик даражаси ва ҳоказолар ҳисобга олиниши зарур.

Грунт кўрсаткичлари қандай тақсимоот қонунига бўйсунушига келсак, уларнинг қанчалиқ синовлари (кузатувлари) сони кўп бўлса, шунчалиқ нормал қонун тақсимоотига мос келиши ҳозирги кунда тўла тўқис исботлангандир [].

Табиий грунтларнинг физик кўрсаткичларига боғлиқ равишда эҳтимолий – статистик асосланган механик кўрсаткичларини жадваллаштиришда қуйидаги усул ва аксиомаларни қўллаш қулайлик туғдиради:

1. Грунтларнинг физик, деформация ва мустаҳкамлик кўрсаткичлари нормал қонуният бўйича тақсимланади;
2. Синовлар сонининг ваколатлилиги вариация (ўзгарувчанлик) коэффицентига мос ҳолда таъминланади;
3. Ваколатлилиги таъминланган ўртача статистик (ўртача арифметикдан фарқли ўлароқ) миқдор, грунт кўрсаткичининг меъёрий қиймати деб қабул қилинади;

4. Ишончилилик чегаралари, ҳамда бино ёки иншоотларнинг жавобгарлик даражаси, кўрсаткичларининг ҳисобий қийматларини аниқлашда ҳисобга олинади.

ХУЛОСА

Зикр этилган масалаларнинг якуни, композит грунтларнинг деформация ва мустаҳкамлик кўрсаткичларини меъёрий, ҳамда ҳисобий қийматларини турли эҳтимолий чегараларда, физик кўрсаткичларига боғлиқ равишда, жадваллаштириш муаммосини ҳал этишни тақозо этади. Таъкидлаш жоизки, табиий структура ва намликка эга бўлган грунтлар учун, уларнинг физик кўрсаткичларига боғлиқ ҳолда деформация ва мустаҳкамлик кўрсаткичларининг меъёрий қийматларинигина аниқлаш имконини берадиган кўпгина жадваллар мавжуд. Бундай жадваллар айрим табиий ҳолдаги худудий грунтлар учун ҳам тузилган, чунки уларсиз лойиҳа – тадқиқот ишларини бажариб бўлмайди. Лекин, мавжуд жадваллар табиий грунтларнинг мустаҳкамлик ва деформация кўрсаткичларини ҳисобий қийматларини турли эҳтимолий чегараларда аниқлаш имконини бермайди. Грунтларнинг турли эҳтимолий чегаралардаги жадваллаштирилган ҳисобий қийматларини аниқлаш, ўз навбатида, бино ва иншоотларни жавобгарлик даражасига мос этиб лойиҳалаш имконини беради. Келтирилган мулоҳазалар композит грунтларга ҳам тўла – тўқис таълуқлидир.

REFERENCES

1. Васильев А.А., Ткаченко Г.Л., Лебедев В.Л. Исследование прочностных свойств гравийных грунтов с глинистым заполнителем // Основания, фундаменты и механика грунтов. – 1979. - № 4, - С. 16 – 17.
2. Ермолаев Н.Н., Михеев В.В. Надежность оснований сооружений. - Л: Стройиздат, 1976. - 152с.
3. Каган А.А. Расчетные характеристики грунтов. - М.: Стройиздат, 1985. - 248с.
4. Коломенский Н.В. Общая методика инженерно – геологических исследований. – М.: Недра, 1968. – 342с.
5. Комаров И.С. Накопление и обработка информации при инженерно – геологических исследованиях. – М.: Недра, 1972. – 296с.
6. Конвиз А.В. Определение эффективных характеристик механических свойств неоднородных грунтов расчетно- экспериментальным способом // Автореф. дисс. канд. техн. наук., - М.: МИСИ, 1987. - 23с.
7. Маслов Н.Н. Механика грунтов в практике строительства. - М.: Стройиздат 1977. - 320с.



8. Митропольский А.К. Техника статистических вычислений. – М.: Наука, 1971. – 576с.
9. Сирожиддинов З.С. Расчёт и проектирование свайных фундаментов на основе теории надёжности // Автореф. дисс. док. техн. наук., Москва, 1993.-352с
10. Федоров Н.Н. Прогноз прочности и сжимаемости оснований из обломочно-глинистых грунтов. - М.: Стройиздат, 1988. - 136с.



БУРҲОНИДДИН МУҲАҚҚИҚ ТЕРМИЗИЙ ҲАЁТИ ВА ФАЛСАФИЙ МЕРОСИ (ТАРИХИЙ ВА АДАБИЙ МАНБАЛАР АСОСИДА)

Шерали Турсунов

Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти
“Математика, табиий ва гуманитар фанлар” кафедраси ассистенти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада улуғ мутасаввиф олим, Мавлоно Жалолиддин Румий (Балхий)нинг тасаввуф илмидаги устози Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий (561-638/1165-1240) ҳаёти ва фалсафий-ирфоний мероси Шамсиддин Аҳмад ал-Афлокий Орифийнинг Мавлоно Румий ҳаёти, устозлари ва шогирдлари, адабий-бадий ва фалсафий-ирфоний мероси ҳамда дунёқарашига бағишланган “Манокиб ул-орифин” асари асосида мухтасар тарзда ёритиб берилди.

Калит сўзлар: Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий, Баҳоуддин Валад, Мавлоно Жалолиддин Румий (Балхий), “Маъориф”, Афлокий, “Манокиб ул-орифин”, тасаввуф, ирфон фалсафаси, устоз, шогирд, муршид, мурид.

ABSTRACT

This article examines the life and philosophical and mystical heritage of Sayyid Burhaniddin Muhaqqiq Termezi (561-638/1165-1240), teacher of Sufism Mawlana Jalaluddin Rumi (Balkhi) based on “Manokib ul-Arifin”, a work by Shamsiddin Ahmad al-Aflaki Orifi, dedicated to the life of Maulana Rumi and his artistic, philosophical and mystical heritage and worldview.

Keywords: Sayyid Burhaniddin Muhaqqiq Termizi, Bahauddin Walad, Mawlana Jalaliddin Rumi (Balkhi), “Maarif”, Aflaki, “Manakib ul-arifin”, Sufism, philosophy Irfan, teacher, student, murshid, murid.

КИРИШ

Ўзбекистонда улуғ мутасаввиф олим Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти ва илмий мероси ҳақида эълон қилинган илк маълумотлар 2000 йилдан бошлаб илмий нашрлар ва даврий матбуот саҳифаларида кўрина бошлади.[4; 5; 3; 9] Аммо, Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти ва илмий мероси ҳақида шу пайтгача эълон қилинган маълумотлар кўпинча қисқача ахборот характерига эга бўлиб келган ва



мутафаккирга оид асл манбаларга бевосита мурожаат қилинмаган. Жумладан:

“Саййид Бурҳонуддин Муҳаққиқ Термизий – Жалолиддин Румий (Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Хусайн ибн Аҳмад Балхий Румий, 604-672/1207-1273), унинг ўғли Султон Валад (623-712/1226-1312), Зарқўб номи билан машҳур Салоҳиддин ибн Фаридун Кўнявийнинг устози, Румийнинг отаси – Баҳоуддин Валаднинг (Муҳаммад ибн Хусайн ибн Аҳмад Хатиб Бакрий, 543-630/1148-1232) яқин шогирди”.

Исломшунос ва термизийшунос олим Ж.Чўтматовнинг термизий алломалар ҳақидаги қимматли монографиясида ҳам шу ҳолат кузатилади: “Кўня сафаридан сўнг Бурҳониддин Термизий Қайсарияга ўтди ва кичик бир хужрада истиқомат қилди. Салжуқийлар волийси Шамсиддин Исфаҳоний у зотга мурид бўлди. У зотнинг доимий жазба, важд ва истиғроқ ҳолатида яшаганлари айтилади. Вафоти борасида икки хил сана келтирилади. Бири 638/1240, бошқаси 674/1275. Қабр тошларининг устига 561-638/1165-1240 саналари битилган”. [9: 313]

“Термизийлар тазкираси”да ушбу Термизийга оид маълумотлар олиш мумкин бўлган манбалар келтирилади, шунингдек, у зотнинг Жалолиддин Румийнинг “Фийҳи мо фийҳи” (Зотдаги нарса зотдадир) асарида келган сўзлари ҳам берилди.[4: 56-64] Муҳаққиқ Термизий борасида Б.Муртазоев берган маълумотлар ҳам аҳамиятга молик. [5: 180-194]

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

“Саййиди сирдон” лақаби билан XIII асрнинг улуғ амалиётчи сўфийларидан бири сифатида машҳур бўлган Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизийнинг ҳаёт йўли ушбу даврнинг Султон ул-уламоси, улуғ фақиҳ ва мутасаввиф олим, Имом Аҳмад Ғаззолий силсиласининг давомчиси Баҳоуддин Валад ва унинг фарзанди – улуғ мутасаввиф ва мутафаккир шоир – Мавлоно Жалолиддин Румийнинг ҳаёт йўллари билан чамбарчас боғланиб кетган. Негаки, Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий Баҳоуддин Валаднинг энг пешқадам шогирди ҳамда Мавлоно Румийнинг тасаввуф илми бўйича илк устози эди. Шу нуқтаи назардан, Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизийнинг ҳаёти, илмий мероси ва фалсафий-ирфоний қарашларини Баҳоуддин Валад ва Мавлоно Румий ҳаёти ва ижодини ўрганмасдан туриб тадқиқ этиш амри маҳол. Негаки, ҳам Баҳоуддин Валад, ҳам Мавлоно Румий асарларида Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий номи қайта-қайта зикр этилиши билан бирга Мавлоно Румий ҳаёти, маънавий мероси ва қарашларига бағишланган тарихий



адабий манбалар – маноқиблар, мақомотлар ва тазкираларда ҳам Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий хусусида тўхталиб ўтилади.

Мавлоно Жалолиддин Румий 1204 йилда Хуросоннинг Балх шаҳрида дунёга келди. Шу муносабат билан уни “Жалолиддин Балхий” деб ҳам аташади. Унинг “Румий” ва “Мавлоно Румий” номи билан шуҳрат қозонишининг сабаби Туркиянинг Қуния шаҳрида узок муддат истиқомат қилганлиги ва ўша ерда вафот этганлигидир. Румий ўзини доим хуросонлик деб ҳисоблаган, ўз шаҳри ва ҳамшаҳарларини яхши кўрган, уларни ҳеч қачон унутмаган.[8: 5] Унинг “Девони кабир”даги ғазалларида ҳам, “Маснавийи маънавий” асарида ҳам Самарқанд, Бухоро, Термиз, Фарғона ва Балх каби Мовароуннаҳру Хуросондаги шаҳарлар, ҳатто қишлоқлар тилга олинади. Мавлавий ўзининг хуросонлик эканлигини қатъий таъкидлаган. Бу ҳақда “Девони кабир”даги ғазалларида ҳам ёзади:

*Аз Хуросонам кашидий то бари юнониён,
То баромўзам бад-ишон, то кунам хушмазҳабий.*

Мавлоно Жалолиддиннинг отаси Муҳаммад бин Ҳусайн Хатибий бўлиб, ўз даврида Баҳоуддин Валад – Баҳовалад номи билан танилган ва “Султон ул-уламо” унвонига эга бўлган. У 1230 йилда, яъни, саксон беш ёшида вафот этди. Баҳоуддин Валад тасаввуф тариқатининг улуғларидан бўлиб, Шамсиддин Аҳмад ал-Афлокийнинг ёзишича, унинг сўфийлик “жун чакмони” (хирқаси), яъни, силсиласи Аҳмад Ғаззолийга бориб боғланади. У амри маъруф аҳли бўлиб, бемаза ва бемаъни одатлардан узок юрар, доимо кўпчилик ҳамроҳлигида бўларди. “Оташкада” тазкираси муаллифининг ёзишича, усиз майит ташқарига чиқарилмаган ва усиз ҳеч қандай йиғин ўтказилмаган. У доимо фалсафа ҳақимлари ва бошқаларни инкор этиб, шариат қоидаларига бўйсунган ва дини Аҳмадийни тарғиб қилган. Хос ва авом уни қўллаб қувватлаган. [2: 193]

Саййид Муҳаққиқ Термизий ҳақида Алишер Навоий куйидаги маълумотни келтиради: “Ҳусайний саййиддур ва Тирмиздин эрди ва Шайх Баҳоуддин Валад қ. с. нинг асҳоби ва муридларидиндур. У хавотирға ишрофи (яъни, ички ўй-хаёлларнинг баъзисини фаросат билан сезиши) жиҳатидин Саййиди сирдон номи билан машҳурдур. Ул кунки (Жалолиддин Румийнинг отаси) Шайх Баҳоуддин Валад оламдин ўтти, Саййид Тирмизда ўлтуруб эрди. Дедики, шайхим ва устодим ҳазратлари дунёдин рихлат қилдилар. Ва неча кундин сўнгра Мавлоно Жалолуддин тарбияти учун Қўняға мутаважжих бўлди. Ва Мавлоно

Жалолуддин ҳазратлари тўққиз йилгача алар хидматларида бўлуб, иршодлар кўруб тарбият топтилар. Дебдурларки, чун Шайх Шихобуддин Сухравардий Румға келди. Саййид ҳазратларини кўргали борди. Саййид кул устига ўлтуруб эрди, ўрнидин тебранмади. Шайх йироқдин таъзим қилди ва ўлтурди, ҳеч воқеъ бўлмади. Муридлар сукут мужибин (сабабин) сўрдилар. Шайх дедики, ҳол аҳли била сўзлашурға ҳол тили керак, йўқки (кифоя қилмаски) қол тили! Муридлар сўрдиларки, Саййидни нечук топтингиз? Шайх деди: дарёе топтук, маввожи маоний дурларидин ва Муҳаммад ҳақоикидин бағоят ошкор ва асру яшурун. Шайх Салоҳуддин (ушбу) Саййиднинг муридларидиндур. Саййид дерлар эрмишки, ҳолимни Шайх Салоҳуддинға бағишладим ва қолимни Мавлоноға. Ва Саййиднинг мутабаррик мазори Қайсариядадур. (Унга ва барча солих бандаларға Аллоҳнинг саломи ва раҳмати бўлсин)”. [1: 318, 326, 328]

Баҳоуддин Валаднинг ёзган асарлари зиёлилар орасида ўзига хос бир меҳр-муҳаббат ва ихлос билан ўқилгани туфайли катта обрў-эътиборга эга эди. Айниқса, унинг “Маъорифи Баҳовалад” номли китоби сон-саноксиз мухлислар орттирган эди. Ушбу китоб, яъни, “Китоби маъориф” Баҳовалад(Жалоллиддин отаси)нинг маъруза ва ваъзларидан ташкил топган мажмуа бўлиб, Мавлоно ва унга эргашган орифлар дунёқарашига ўзига хос равишда катта таъсир кўрсатди. Шунинг учун бўлса керак, “Маснавийи маънавий”да акс эттирилган кўпгина масалаларнинг изи ва илдизини Баҳоуддин Валаднинг “Китоби маъориф”идан топиш мумкин.

Султон Баҳовалад ҳижрий 628 йил (1232) рабиъулаввал ойининг ўн саккизинчи куни Қунияда вафот этди. Мавлоно отаси Баҳовалад вафот этган пайтда йигирма тўрт ёшли йигит эди. Баҳоваладнинг вафотидан унинг ўрнини боса оладиган одам устида сўз юритилар экан, “барчанинг кўзи Мавлонога қадалди. Баҳоваладнинг ўзи ҳам “Мендан кейин бу мақом Худовандгор Жалоллиддин Муҳаммадга лойиқдир” дерди. Бу гап муридларга ҳам мақбул эди. Бунинг устига Алоуддин Кайкубод ҳам шуни хоҳларди. Озми-кўпми тажриба кўрган, билимдон Мавлоно йигирма тўрт ёшида муфтий ва фақиҳ бўлди, мударрислик курсисига ўтирди. У отасининг мактабида илоҳий ва мажозий муҳаббат дарсини олган бўлса-да, бир мударрис эди ва маъно аҳлининг асрорини ошиқ орифлар тилида баён қилишни хоҳламасди. Аммо бу фақиҳона сиймо замирида туғёну тўфонлардан ҳам кучлироқ бир шахс яширинган, бу “тўзал паричехра” зарурат юзасидан парда ортини ихтиёр этган эди. Бу ҳолат Бурҳониддин Муҳаққиқ келиб, уни янги олам билан ошно этгунча давом этди. Унгача Мавлоно дарсу суҳбатларининг асосий мавзуи, шаръий илмлар билан бирга

“Маъорифи Баҳовалад”, ўзининг таъбири билан айтганда “Фавоиди волид” мавзусида шариат ва тариқат орасида қолган, фақиҳлик, воизлик ва орифлик хислатларини ўзида мужассамлаштирган шахс ҳақидаги вазълар ва суҳбатлардан иборат эди”. [6: 15] Отаси ўғлининг ўз ўрнига ўтиришини, мажлисларда ваъз ўқиб, фатво бериш усулларини ўрганишини истарди. Тўғриси, бу борада ўғлига васият ҳам қилган эди. Шундай ҳам бўлди. Мавлоно бу машғулотларни бир йил, яъни, Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий маслағи билан танишгунча давом эттирди.

Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизийнинг ўзи маърифат ва ҳақиқат аҳлидан бўлиб, ўз даврининг машҳур олими – Баҳоуддин Валаднинг садоқатли муридларидан ҳисобланарди. У Балхда Баҳовалад мажлисларида қатнашиб, ундан илм ўрганган ва унинг чин муридларидан бирига айланган эди. Эронлик таниқли румийшунос олим Муҳаммад Истеълумий Баҳоуддин Валад ва Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ўртасидаги пир-муридлик муносабатларини қуйидагича тавсифлайди: “Хуросоннинг Термиз шаҳридан чиққан Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Балхда Баҳоуддин Валаднинг шогирди эди. Камолот даражаларига жуда қисқа муддат ичида эришган бу шогирд Баҳоваладнинг муҳожиратидан сал олдин Термизга, ўзининг хилват гўшасига қайтиб кетган эди. Аммо Баҳовалад билан дийдор кўриш истаги унга тинчлик бермасди. Баҳоваладнинг Хуросондан чиқиб кетганини эшитгач, ҳафсаласи пир бўлиб, афсус-надоматда қолди. Пирининг Қунияда қўним топганини эшитиши билан Рум сафарига отланди, аммо Баҳовалад дунёдан кўз юмганидан бир йил ўтганидан сўнг Қунияга етиб борди”. [6: 15]

Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти, маънавий мероси ва фалсафий-ирфоний дунёқараши ҳақида маълумот берадиган тарихий ва адабий манбалар деярли санокли. Булар – Мавлоно Жалолиддин Румийнинг муҳташам асарлари – “Маснавийи маънавий”, “Девони кабир” ва “Фиҳи мо фиҳи”даги Муҳаққиқ Термизий ҳақидаги ишоралар, Румийнинг ўғли Султон Валаднинг “Валаднома” (“Ибтидонома”) асаридаги ишоралар, Румий ҳақидаги илк маноклиб – Фаридун ибн Аҳмад Сипаҳсолорнинг “Рисолаи Сипаҳсолор ба маноклиби Худовандгор” номли асари ва Шамсиддин Аҳмад ал-Афлокий Орифийнинг Мавлоно Жалолиддин ҳаёти, адабий-бадий ва фалсафий-ирфоний мероси ҳамда дунёқараши хусусида нисбатан кўпроқ маълумот берадиган “Маноклиб ул-орифин” асари ҳамда кейинги даврда ёзилган Давлатшоҳ Самарқандийнинг “Тазкират уш-шуаро” асаридир.

Шамсиддин Аҳмад Афлокийнинг “Маноқиб ул-орифин” асари Мавлоно Жалолоддин Румийнинг ирфоний мақом ва мартабалари ҳақида “маноқиб” жанрида тарихий-адабий услубда форс-тожик тилида битилган таржимаи ҳол (биографик) асардир. Мавлоно вафотидан саксон йил ўтгандан сўнг, яъни х.к.761 /м.1360 йилда Шамсиддин Аҳмад Афлокий томонидан форсий тилда насрий йўсинда ёзилган ушбу муътабар тарихий манба илк марта 1959 йили Анқарада, иккинчи марта хижрий-шамсий 1362 йили икки жилда Таҳсин Ёзижи томонидан Техронда нашр этилган.[10] Биринчи жилнинг иккинчи фасли

"در مناقب حضرت سید سردان برهان الحق و الدین الحسین الترمذی روح الله العزیز" "Ҳазрати Саййиди сирдон Бурҳон ул-Ҳаққ ва-д-дин ал-Ҳусайн ат-Термизий – Аллоҳ унинг руҳини азиз айласин – маноқибда" деб номланади. Шамсиддин Аҳмад ал-Афлокий мазкур фаслни Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаётига оид қуйидаги қимматли маълумотлар билан бошлайди:

"حضرت سید را در ملک خراسان و ترمذ و بخارا و غیره مشهور سید سردان می گفتند و دایم از ضمائر درون و مغیبات سفلی و علوی می گفت. و در آن زمان که حضرت بهاء ولد از دیار بلخ هجرت نمود، سید سردان جانب شهر ترمذ رفته منزوی شده بود."

Яъни: “Ҳазрати Саййид Хуросон мулкида ва Термизу Бухорою бошқа жойларда машҳур эди ва ва уни “Саййиди сирдон” (сирларни билгувчи Саййид) дердилар. У доимо ботин олами, сифлий ва улвий ғайбиётдан сўзларди. Ҳазрати Баҳовалад Балх диёридан муҳожират қилгач, Саййиди сирдон Термиз шаҳрига бориб узлатга чекинган эди”. [10: 56]

Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий соҳиб каромат бўлган ва ҳар замонда унинг кўнглига ғайб оламидан турли хабарлар келиб турган. Аҳмад Афлокий ана шу фикр – Муҳаққиқ Термизийдаги интуитив – ботиний билимнинг қудратини қуйидаги воқеа билан асослаб беради:

"روزی بمعرفت گفتن مشغول بود، چاشتگاه روز جمعه هژدهم ماه ربیع الآخر سنه ثمان و عشرين و سمانه فریاد عظیم کرد و بسیار گریست که دریغا حضرت شیخم از کوی عالم خاک، به سوی عالم پاک رحلت نمود. جماعتی که حاضر وقت بودند، تاریخ روز و سال را در حال ثبت کردند. بعد از آنکه بملک روم رسید همچنان بود که فرموده بود. نماز جماعه را گزارده شرایط عزارا با قامت رسانید و کافه اکابر آن دیار تا چهل روز تمام سوگوار بودند. بعد از عرص چهل روز فرمود که فرزند شیخم جلال الدین محمد من تنهاست. و نگران من است، بر من فرض عین است که جانب دیار روم روم و روم را بر خاک پای او مالم و در خدمت او ملازم باشم و این امانت را که شیخم به من سپرده است، بوی تسلیم کنم."

Яъни: “Бир куни маърифат ҳақида суҳбат қуриш билан машғул эди – бу 628 (м.1232) йил Рабеъулохир ойининг ўн саккизинчи куни (жумъа куни) эди – тўсатдан фарёд уриб “Водариф, ҳазрати шайхим тупроқ оламидан пок оламга рихлат қилдилар!”, деб кўп йиғлади. Ўша йиғинда ҳозир бўлган кишилардарҳол кун ва йил санаси қайд қилиб қўйдилар. Рум мамлакатига етиб боргач, ўзи айтгандай бўлиб чиқди. Жумъа намозини ўқиб, азадорлик шарт-шароитларини мукаммал адо этди. У диёрнинг улуғлари қирқ кунгача аза тутдилар. Қирқ маъракасани ўтказгач, қирқинчи куни “Шайхимнинг фарзанди – менинг Жалолиддин Муҳаммадим ёлғиз қолди ва мени кутмоқда. Энди Рум диёрига бориш, Румни унинг оёқлари гардига суртиш, унинг хизматида бўлиш ва шайхим менга топширган омонатни унга топшириш мен учун айни фарздир”. [10: 56-57]

“Саййиди сирдон” деб аташган Бурҳониддин Термизий “ўзи билган сирни Мавлонога топширган эди. Елкасидаги энг оғир юкдан қутулгандай, енгил тортиб, Қайсарияга қайтди. Бир йилдан сўнг унинг бу дунёдаги ҳаёт юлдузи Қайсарияда (х. 638; м. 1240) сўнди”. [6: 18] Қабр тошининг устига битилган ҳижрий-қамарий 561-638 / мелодий 1165-1240 саналардан унинг 75 йил умр кўргангани тахмин қилиш мумкин.

Саййид Бурҳониддин Термизийдан тасаввуф сир-асрорларига оид “Маъориф” номли форсийда ёзилган асар қолган бўлиб, у Эронда 1960 йилда машҳур эронлик тасаввуфшунос олим Бадеъуззамон Фурўзонфар томонидан тадқиқий нашр этилган. Сўнг ушбу нашр 1972 йилда Абдулбоқи Гулпинарли ва 1995 йилда Али Ризо Карабулут томонидан турк тилига таржима этилган. Али Ризо Карабулут унинг кириш қисмида асар мазмуни, унинг қўлёзмалари ва нашр босмалари ҳақида маълумот берган. Ушбу асарда Бурҳониддин Термизий уларнинг сўзлари ва шеърларидан истифода этган олим ва шоирларнинг номларини ҳам тўла келтирган. Улар орасида Термизийлардан Абу Бакр Варроқ, Муҳаммад ибн Ҳомид ва Муҳаммад Ҳаким Термизийлар бор. [7: 66]

Шу ўринда айтиш лозимки, “Маъориф” асарининг Муҳаққиқ Термизий қаламига тегишлилиги баъзи бир машҳур румийшунос олимларда шубҳа уйғотган. Жумладан, таниқли румийшунос, “Маснавийи маънавий” асарининг энг яхши илмий нашрларидан бирини тайёрлаган олим доктор Муҳаммад Истеълomий эронлик машҳур румийшунос ва тасаввуфшунос олим Бадеъуззамон Фурўзонфарнинг бу борадаги шубҳасига таянган ҳолда шундай ёзади: “Мавлоно унинг хужрасидан пароканда ёзувларни топиб ўзи билан Қунияга олиб келди.

Эҳтимол, бу кейинчалик бошқа бир Бурҳоннинг сўзлари билан қўшилиб, “Маъорифи Бурҳон Муҳаққиқ” номи билан маъруф бўлган асардир”. [6: 18]

Бизнингча, бу шубҳа ўринли эмас. Негаки, биринчидан, “Маъориф” номли тасаввуфий асарлар ёзиш Баҳоуддин Валад мактабида урф бўлган ва бундай ном билан асар ёзишни унинг ўзи бошлаб берган. Иккинчидан, Муҳаққиқ Термизий Баҳоуддин Валаднинг энг пешқадам шогирдларидан бўлган ва табиийки, унинг қарашларида устозининг қарашлари ҳам ўз аксини топган. Бу ҳолатни Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий “Маъориф”ида кузатиш мумкин. Учинчидан, Баҳоуддин Валад доирасидаги шахслар орасида яна бир “Бурҳон” ё “Бурҳониддин” исмли мутасаввиф бўлганлиги ҳақида Мавлоно Жалолиддин Румий асарларида ҳам, Шамсиддин Афлокийнинг “Маноқиб ул-орифин” асарида ҳам ҳеч қандай бир маълумот учрамайди.

ХУЛОСА

Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти ва илмий мероси ҳалигача етарли даражада тадқиқ этилмаган. Унинг ҳақида кўпроқ маълумот ва ахборот характериға эға бўлган мақолалар ёзилган, холос. Унинг ҳаёти, илмий мероси ва дунёқараши XIII-XV асрларда яратилган тарихий ва адабий манбалар асосида, айниқса, бу улуғ мутасаввиф олимнинг тасаввуф тарихи ва фалсафасиға оид муҳим асари – “Маъориф” асари асосида жиддий тарзда тадқиқ этилиши зарур. Зотан, Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий маънавий мероси ва фалсафий-ирфоний дунёқарашини ўрганиш – Мавлоно Жалолиддин Румийнинг ўта мураккаб ва рангбаранг дунёқарашини янада чуқурроқ ўрганиш, қолаверса, минтақамизда вужудға келиб, кенг қулоч ёзган ислом иррационал фалсафаси – тасаввуф илмини теранроқ идрок этиш имкониятини яратиб беради.

REFERENCES

1. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Нашрга тайёрловчилар С.Ғаниева, М. Мирзааҳмедова. Арабча ва форсча матнларни таржима қилиб, нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир: С. Рафиддинов. – Тошкент: “Фан”, 2001.
2. Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Лейден нашри.
3. Жўраев О. Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий. // “Имом Бухорий сабоқлари” журнали, 2/2015.
4. Кенжабек М. Термиз тазкираси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.



5. Муртазов Б. Сайид Бурхониддин Термизий. // Til va adabiyot ta'limi. Ўзбекистон Республикаси Халқ Таълими Вазирлигининг илмий-методик журнали. 2002/5.
6. Муҳаммад Истеъломий. Жалолиддин Румий ҳақида. “Маснавий”га муқаддима. / Форс тилидан Жаъфар Муҳаммад таржимаси. – Техрон: “Islamic Thought Foundation”, 2000.
7. Seyyid Burhaneddin Tirmizî. Maârif. Ali Riza Karabulut tercümesi. 1995.
8. Фурузонфар, Бадиъуззамон. Мавлоно Жалолиддин ҳаёти. – Техрон, 1366.
9. Чўтматов Ж. Термизнинг безавол қалъалари ёхуд Термиз тарихи. / Масъул муҳаррир: Ж.Холмўминов. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2017.
10. شمس الدين احمد الافلاكي العارفي. مناقب العارفين. جلد اول. با تصحيحات و حواشى و تعليقات بكوشش: تحسين يازيجى. - تهران: دنياى كتاب، ۱۳۶۲.

ПАРАЗИТ НЕМАТОДА ТУХУМЛАРИНИНГ *IN VITRO* ШАРОИТИДА ЎСТИРИШ

Р. Р. Каримова, О. О. Амиров, А. Э. Кучбоев

ЎзР ФА Зоология институти

Н. М. Адашева

Наманган давлат университети

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада *in vitro* шароитида паразит нематода тухумларининг тури ҳароратда ва турли хил суъний муҳитларида ривожланиши, ўсиши ва личинкалик босқичига ўтишини ўрганиш бўйича тадқиқотлар натижалари келтирилди. Нематода тухумларининг ривожланиши ва улардан личинкалар ажралиб чиқиши учун энг қулай ҳарорат 25°C дан 30°C гача эканлиги маълум бўлди. Тухумлардан личинкаларнинг ажралиб чиқиши 3-7 кунда, кўпроқ личинкалар ажралиб чиқиши эса 4 - 6 кун оралиғига тўғри келди. Нематода тухумларидан личинкаларнинг кўп ажралиб чиқиши 199 муҳитида қайд этилиб, бу 90% ташкил этди.

Калит сўзлар: *in vitro*, нематода тухумлари, личинка.

IN VITRO CULTIVATION OF PARASITIC NEMATODE EGGS

ABSTRACT

In this article, the results of studies on the development, growth and transition to the larval stage of parasitic nematode eggs *in vitro* at different temperatures and in different artificial environments are presented. It was found that the most favorable temperature for the development of nematode eggs and the release of larvae is from 25°C to 30°C. Larvae hatched from eggs in 3-7 days, and more larvae hatched in 4-6 days. High hatching of larvae from nematode eggs was recorded in 199 mediums, which was 90%.

Keywords: *in vitro*, nematode eggs, larva.

КИРИШ

Гельминтларни, жумладан нематода тухумларини *in vitro* шароитида яшовчанлигини ўрганиш жуда муҳим ва шу билан биргаликда қийин муаммолардан бўлиб, назарий ва

амалий аҳамият касб этади. Бу муаммоларнинг ечилиши гельминтларнинг ривожланиш қонуниятлари, физиологияси ва биокимёвий жиҳатларини ўрганиш имконини беради. Дастлабки эришилган ютуқларда гельминтларнинг модда алмашинуви хусусиятлари, уларнинг хўжайин организмлари билан ўзаро муносабатлари, антигельминтик препаратлар, гормонлар ва бошқа биологик актив моддаларни гельминтларнинг турли тараққиёт даврига таъсир этиш муаммоси ҳамда одам ва ҳайвон организмда бўладиган гельминтоз касаллигининг кам ўрганилган иммунитет муаммосини ўрганиш учун имконият яратилади [1].

Ёввойи ва уй қўйларида паразитлик қилувчи аксарият нематодалар тухум қўювчи нематодалар ҳисобланади, шунинг учун хўжайин организмдан юқумли элементлар тухум шаклида нажас билан ташқи муҳитга чиқади. Тухумнинг тўрт қаватли қобиғи атроф-муҳит таъсирига жуда чидамли. Шунинг учун эмбрионнинг ривожланиш босқичи тухум ичида кечади, чунки ишончли ҳимояланган. Кейинчалик тухум ва личинканинг ривожланиши учун экологик шароитлар, айниқса ҳарорат ва намликка боғлиқ. Бундан ташқари, эмбрионнинг нормал ривожланиши учун кислород ҳам зарурдир [2].

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛИ ВА УСЛУБЛАРИ

Умуман олганда, нематода тухумларининг аксарияти ташқи муҳитда ривожланиши битта схемада кечади. Етарлича ҳароратда ва етарли намликда тухум ичида 1-3 сутка давомида личинка ривожланади, кейинчалик тухумдан ташқи муҳитга чиқади. Бу биринчи босқичли личинка деб аталади. Улар ўзининг морфологик тузилишига кўра, ўз аجدодлари рабдитидларга жуда ўхшайди. Қулай шарт-шароитда (мос намлик ва ҳарорат) личинка ўзининг ривожланишини давом эттиради ва бирмунча вақт ўтиб фаол ҳаракат қиладиган летаргия (узоқ ухлаш) ҳолатига ўтади. Ривожланишнинг ушбу босқичида личинка кутикула қаватини ташлайди (туллайди) ва қобиқ билан қопланади. Ушбу жараён тугагандан сўнг, у иккинчи босқичга ўтади [3].

Личинкалар ривожланишининг бу босқичида ўзларининг қобиғини ташлайди ёки вақтинча сақлайди. Личинканинг фаол даврдан сўнг яна летаргия ҳолатига тушади, туллайди ва личинка учинчи босқичга ўтади. Учинчи босқичда личинка аввалги личинкалардан морфологик ва физиологик жиҳатдан фарқ қилади, чунки у эркин яшовчи эмас, паразит формадир. Бундай личинкалар инвазион дейилади. Ушбу личинкалар хўжайин организмга тушиши учун ерни юзаси бўйлаб яйловдаги ўсимликларнинг юқори қисмига вертикал миграция қилиши

зарур. Ушбу кўчиш фақат ўтлар устида нам бўлганда (етарлича намлик бўлганда) ва қулай ҳарорат шароитларида содир бўлади [3].

Ҳайвонлар личинкаларни ўт билан еганда юқтиради. Сув ҳам юқтирувчи трансфер омили бўлиб хизмат қилиши мумкин. Хўжайин организмга тушган личинка ривожланишнинг навбатдаги босқичи, яъни тўртинчи босқичга ўтади. Учинчи марта туллагандан сўнг личинка бешинчи босқичга ўтади. Бешинчи босқичда личинкалар туллайди, жинсий вояга етади, бир неча кундан кейин эркак ва урғочилар ўзаро жинсий кўшилади, урғочилари тухум кўяди.

Бу йўналишда етарлича ҳал этилмаган масалалар мавжуд бўлиб, турли гуруҳдаги гельминтларнинг яшовчанлик шарт-шароитларини ўрганиш имкони бўлади. Адабиёт маълумотларида бир қатор олимлар ўз ишларида гельминтларни турли хил озуқали моддаларда *in vitro* шароитида тирик сақлашга қаратилган ишларни амалга оширган. Айрим тадқиқотчилар суъний озуқа муҳитларида гельминт тухумидан ёки юқумли личинкаларидан то жинсий вояга етган давригача ривожлантириш бўйича тажриба ўтказишган [4, 5, 6].


Шулардан келиб чиққан ҳолда *in vitro* шароитида паразит нематода тухумларининг турли ҳароратда ва турли суъний муҳитларда ривожланиши, ўсиши ва улардан личинкаларнинг ажралиб чиқишини ўрганишни олдимизга мақсад қилиб кўйдик.

Илмий тадқиқот тажрибаларини ўтказиш учун материал сифатида уй кўйларнинг фекалийсидан топилган нематода тухумларидан фойдаланилди. Мазкур нематода тухумлари Наманган вилояти Чуст туманига тегишли шахсий хўжаликларига тегишли уй кўйлари фекалийларидан йиғилди. Нематода тухумларини аниқлашда барчага маълум Ф. Фюллеборн (F.Fulleborn) усулидан фойдаланилди. Бу усулда гельминт тухумларининг суёқлик юзасига сузиб чиқиши учун ош тузининг тўйинган эритмаси ишлатилади (солиштирма оғирлиги 1,18 га тенг). Тажрибалардаги ҳар бир Петри косчасига 10 мл озуқа муҳитлари, 1 мл антибиотик эритмаси ҳамда 50 донадан нематода тухумлари солинди. Тухумларнинг ривожланиши ва улардан личинкаларнинг чиқишини кузатиш учун суъний муҳит сифатида дистилланган сув, 199 муҳити ва физиологик эритма ва фойдаланилди.

НАТИЖАЛАР

Биринчи тажрибамизда турли хил ҳароратда тухумлардан личинкалар ажралиб чиқиши ўрганилди (расм).





Расм. Турли ҳароратда тухумлардан личинкалар чиқиши

Берилган 1 - расмда 4°C га қўйилган нематода тухумлари 30 кун давомида 2 та личинка, 10°C да 8 та, 15°C да 12 та, 20°C да 25 та, 25°C 32 та, 30°C да 43 та, 35°C да 23 та ва 40°C да эса нематода тухумларидан личинкалар ажралмади. Демак, нематода тухумларининг ривожланиши ва личинкалар ажралиб чиқиши учун қулай ҳарорат 25°C дан 30°C гача эканлиги маълум бўлди.

Иккинчи тажрибамизда нематода тухумларининг ривожланиши турли хил суъний муҳитларда текшириб кўрилди. Бунинг учун ажратиб олинган нематода тухумларини 3 хил эритмага (муҳитда) 50 донадан санаб солинди. Биринчиси физиологик эритма, иккинчиси 199 муҳит ва учинчи эритма дистилланган сувда текширилди. Уч хил эритмага солинган нематода тухумларини 25°C ҳароратли термостатга 10 кун давомида қўйилди ва қуйидаги натижалар олинди (жадвал).

Жадвал

Турли хил муҳитларда личинкаларнинг ривожланиши, n-50

Кунлар	Эритмалар		
	Физиологик эритма	199 муҳити	Дистилланган сув
1	0	0	0
2	0	0	0
3	1	4	3
4	7	9	5
5	10	10	7
6	8	10	11

7	8	8	3
8	4	3	0
9	3	1	0
10	0	0	0
Жами:	41	45	29

Жадвалда ҳар хил эритмаларда нематода личинкаларининг ривожланиши келтирилган бўлиб, унда 1 ва 2 кунларда тухумлардан личинка ажралиб чиқиши кузатилмади. Тухумлардан личинка ажралиб чиқиши асосан 3-7 кун орасида кузатилди. Нематода тухумларидан энг кўп личинка ажралиб чиқиши 4 – 6 кун оралиғига тўғри келди. Олиб борилган тажрибамизда нематодалар тухумларидан личинкаларнинг ажралиб чиқиши 199 муҳитида қайд этилиб, бу 90 % ташкил этди.

ХУЛОСА

Аксарият нематодалар ярим очик ривожланувчи геогельминтларга кириб, ривожланиш жараёнида I босқичли личинкаси тухум қобиғини ёриб ташқи муҳитга чиқади ва ўсиш жараёнида икки марта пўст ташлаб юқумли ҳолга келади. Хўжайин организмига тушгунга қадар ташқи муҳитнинг ноқулай экологик омилларига чидамлилиги ортиб, узоқ вақт ҳаётчанлигини сақлаб тура олади [7]. Нематода тухумлари ҳажми нисбатан йирик бўлиб, уларнинг ўсиши ва кейинги босқичларда туллаши учун имконияти мавжуд бўлади. Шунини ҳам таъкидлашимиз лозимки, тажрибамизда тухумлардан ажралиб чиқган личинкалар ошқозон ичак нематодаларига тегишли эканлиги маълум бўлди. Личинкаларнинг тур таркиби ўрганишга доир илмий тадқиқот ишлар давом эттирилади.

REFERENCES

1. Тараканов В. И. Культивирование гельминтов в искусственных питательных средах (монографический обзор литературы и собственные исследования). Автореф. дисс. ... д-ра биол. наук. - М., 1980. 49 с.
2. Anderson R.C. Nematode parasites of Vertebrates: Their Development and Transmission. 2nd ed. Wallingford // CABI Publishing, Wallingford, Oxon (UK), 2000. – P. 650.
3. Шульц Р.С., Гвоздев Е.В. Основы общей гельминтологии. Морфология, систематика, филогения. - Москва: Наука, 1970. - Т.1. - С. 492.
4. Тараканов В. П., Краснова Л. Л. Влияние искусственных питательных сред на развитие личинок трихинелл in vitro // Тр. Всесоюз. ин-та гельминтол. - М., 1970. Т. 16. - С. 249-252.



5. Тараканов В.И. Проблемы культивирования нематод *in vitro*// Тр. Всесоюз. Ин-та гельминтол. - М., 1970. Т. 17. 1971. - С.223-227.
6. Кучбаев А.Э, Ахмеров Р.Н, Азимов Д.А. О культивировании нематод *Dictyocaulus filaria* в питательных средах // Achievements of Biotechnology for the Future of Mankind: Proceedings of the International Conference. June 11 - 14, 2001. - Samarqand, 2001. - С.165-166.
7. Орипов А.О., Йўлдошев Н.Э. Қоракўл қўйларнинг асосий гельминтлари. – Тошкент, Фан ва технология, 2009. – Б.152.



ASPARAGUS OFFICINALIS L. O‘SIMLIGINI URUG‘LARIDAN KO‘PAYTIRISH VA KO‘CHATLARINI YETISHTIRISH

Abdulla Rustamovich Raximov

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

rahimovabdullo@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada *Asparagus officinalis* L. o‘simligining urug‘laridan ko‘paytirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqotlarimizda sarsabilni xorijdan keltirilgan 16 ta nav va duragaylari olinib, ularni urug‘laridan ko‘paytirish, ko‘chatlar tayyorlash, ularni ochiq maydonga ekish va parvarish bo‘yicha izlanishlar olib borildi.

Sarsabil nafaqat inson iste‘moli, balki shifobaxsh xususiyatlari uchun ham madaniylashtirilgan beri qimmatli sabzavot bo‘lib kelmoqda. Hozirgi vaqtda yangi (barra), konservalangan va muzlatilgan sarsabil mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi tufayli barcha qit‘alarda uni yetishtirish hamda ekilgan maydonning barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Sarsabil yuqori parhez qiymati va yilning birinchi yarmida bozorda yangi sabzavotlar tanqisligida mavjudligi tufayli yuqori ozuqaviy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan sabzavot hisoblanadi.

Sarsabil ko‘chatlarini tayyorlashda urug‘larini xona sharoitida undirib, himoyalangan maydonlarda maxsus idishlarda ekib o‘stirish maqbul usul hisoblanadi. Ochiq maydonga ekilgan nihollarni yaxshi o‘sib rivojlanishi uchun o‘suv davrida mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirishi, qatororalarini chopish va begona o‘tlardan tozalash lozim. Parvarishlanayotgan ko‘chatlarda poyalarni to‘g‘ri shakllantirish kelgusi yilda ildizpoyalardan yangi (barra) novdalar ko‘proq unib chiqishi imkonini beradi.

Kalit so‘zlar. Sarsabil, *Asparagus officinalis* L., nav, duragay, ildizpoya.

ABSTRACT

The article describes the results of studies on the propagation of *Asparagus officinalis* L. by seeds. In our research, 16 varieties and hybrids of asparagus were taken and research was carried out on their propagation from seeds, preparation of seedlings, planting them in open ground and care.

Asparagus was a valuable vegetable because it was grown not only for food but also for medicinal purposes. Today, its cultivation area is increasing on all continents due to the growing demand for fresh, canned and frozen asparagus products. Due to its high nutritional value and economic importance, fresh asparagus is marketed in the first half of the year.

The optimal way to prepare asparagus seedlings is to germinate the seeds indoors and plant them in special containers in protected areas. In order for seedlings planted in open ground to develop well, it is necessary to feed them with mineral fertilizers during the growing season, soften the rows and clear them of weeds. Good formation of stems in cultivated seedlings allows the rhizomes to produce more new shoots next year.

Keywords: Asparagus, *Asparagus officinalis* L., cultivar, hybrid, rhizome.

KIRISH

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. FAO ma'lumotlariga ko'ra, bo'yicha 1,148446 ming tonnadan ortiq sabzavotlar mahsulotlari yetishtirilgan bo'lib, bu Osiyo davlatlari bo'yicha - 898152 ming tonna, Afrika davlatlari bo'yicha - 85149 ming tonna, Yevropa davlari bo'yicha - 84578 ming tonna, Amerika qit'asi bo'yicha - 77402 ming tonna va Okeania davlatlari bo'yicha esa 3165 ming tonnani tashkil etgan.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston xorijga qiymati qariyb 1,1 mlrd AQSh dollariga teng bo'lgan 1,6 mln tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan.

Mamlakatimizda 40 dan ortiq sabzavot ekin turlari ekilib foydalanilmoqda. Shu bilan birga, dunyoda inson salomatligi uchun qimmatli xususiyatlarga ega bo'lgan, xalqimiz kam iste'mol qiladigan va dehqonlarimiz tomonidan juda kam yetishtiriladigan noan'anaviy sabzavot o'simliklarini ko'paytirish, ularning oziq-ovqat va dorivorlik xususiyatlaridan yanada to'laroq foydalanish, ular xomashyosi asosida tabiiy sabzavot va doridarmonlar ishlab chiqarishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday o'simliklardan biri bo'lgan *Asparagus officinalis* L. - sarsabil yetishtirish dunyo bo'yicha 2021 yilda 215 ming gektar maydonni tashkil etadi. Biroq, bu ham sarsabilga bo'lgan global talabni qondirish uchun yetarli emas.

Muayyan sharoitda eksportbop sabzavot hisoblangan sarsabil ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bunda yuqori mahsuldor nav va duragaylarni to'g'ri tanlash, o'stirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida noan'anaviy sabzavot ekini bo'lgan sarsabilni nav va duragaylarini o'rganish, yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Noan'anaviy sabzavot ekini bo'lgan sarsabilni respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida yetishtirish imkoniyatlarini o'rganish, o'simlikni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Liliaceae oilasiga mansub *Asparagus L.* turlari oʻzlarining dorivor xususiyatlari uchun qadrlanadigan mahalliy dorivor oʻsimlikdir. *Asparagus* turkumi dunyo boʻylab 300 ga yaqin turni oʻz ichiga oladi [2]. Bu turning vatani Oʻrta yer dengizi mintaqasi hisoblanadi. Oʻsimlik turlari moʻtadil mintaqalarda, Janubiy Yevropa, Anadolu, Osiyo va Afrikada tarqalgan [1].

Sarsabil balandligi 1,5 m gacha boʻlgan koʻp yillik oʻtsimon oʻsimlik boʻlib, u bir joyda taxminan 20 yil oʻsishi mumkin, bu vaqt ichida 50 dan ortiq kurtaklar hosil qiladi [5].

Sarsabil yosh novlarini past kaloriyaligi (taxminan 20 kkal), juda kam yogʻliligi (0,12 g/100 g), dietik xususiyatlari, shuningdek, vitaminlar va minerallarning muvozanatli kompleksi tufayli uni ortiqcha vazndan xalos boʻlishda parhezga kiritish uchun ajoyib mahsulot hisoblanadi [4]. Xalq tabobatida ildiz va ildizpoyaning qaynatmasidan yurak-qon tomir kasalliklari, buyrak va siydik pufagi kasalliklari, siydik chiqarish qiyinlishuvi, revmatizm va epilepsiya kasalliklarida qoʻllaniladi va qon tozalovchi sifatida ishlatiladi. Tashqi tomondan, damlamalar soch toʻkilishini oldini olish uchun, shuningdek, teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi [6].

Sarsabil plantatsiyalari uchun koʻchatlar issiqxonada tayyorlash yaxshi natijalar beradi. Urugʻlarni mart oyining boshida kasetlarda yoki koʻchat idishlarida ekish kerak. Niholni yaxshi undirish uchun urugʻlarni 30 °C haroratda suvga botirish tavsiya etiladi [10].

Sarsabil urugʻlari +10...+12°C da una boshlaydi. Oʻsimliklar rivojlanishi uchun maqbul harorat +20...+25 °C boʻlib, katta yoshdagi oʻsishliklar -25...-30°C va yosh nihollari -5...-7 °C haroratli sovuqda hamda uzoq muddatli qurgʻoqchilikka bardosh beradi [8].

Lekin, rivojlangan davlatlarda sarsabil koʻchatlarini yetishtirishda urugʻlarni toʻgʻridan-toʻgʻri ochiq maydonda ekish anʼanaviy usul hisoblanadi. Dalada maysalarni yaxshi unirib olish uchun urugʻlarni 30 °C haroratda suvga botirish, soʻnga ekish tavsiya etiladi [11].

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida sarsabilni urugʻlaridan koʻpaytirish boʻyicha tadqiqotlar Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi tajriba dalalarida olib borildi. Tadqiqotlarni amalga oshirishda S.S.Litvinov tomonidan ishlab chiqilgan “Metodika polevogo opita v ovoshevodstve” (2011) [7] va V.F.Belik tahriri ostida nashr etilgan “Metodika opitnogo dela v ovoshevodstve i baxchevodstve” (1992) [9] hamda B.J.Azimov va boshq.

“Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o‘tkazish uslubi” (2023) [3] nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiya va uslublaridan foydalanildi.

NATIJALAR


Ma’lumki, sabzavot ekinlari ularni urug‘lari yoki oldindan tayyorlangan ko‘chatlarini ekish orqali yetishtiriladi. Respublikamiz tuproq-iqlim sharoiti uchun noan’anaviy sabzavot ekini bo‘lgan sarsabil o‘simligini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotimizda sarsabil o‘simligini 16 ta (Arjentskaya (zelyonaya), Arjentskaya (belaya), sarskaya, Mariya, Meri Vashington, Delikatesnaya, Zelyonaya, Fioletovaya, Apollo F1, Atlas F1, Grande F1, Purple passion F1, Backlim F1, Xenolim F1, Vitalim F1, Aspalim F1) nav va duragay namunalari olinib respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga iqlimlashtirilib, o‘simlikning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘chatlar yetishtirildi.

Sarsabilni urug‘laridan yetishtirishda 2 usulda: 1) urug‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri dalaga ekish; 2) urug‘lardan issiqxonada ko‘chatlar tayyorlab ekish mumkin bo‘ladi. Birinchi usulda bajarilishi lozim bo‘lgan texnologik jarayonlar ancha kam bo‘lsada, biroq, urug‘lar to‘g‘ridan-to‘g‘ri dala sharoitida ekilganda ularni unuvchanligi laboratoriya sharoitida undirilgan urug‘larga nisbatan ancha kam bo‘ladi. Natijada o‘simlik ekilgan maydonda tup soni siyraklashadi.

Sarsabil unumdor tuproqqa talabchan bo‘lib, tuproqning muhiti - pH 6,5-7 maqbul hisoblanadi. O‘simlik namni yaxshi ko‘radi, lekin tuproqda namlikni ortib ketishi yosh novdalarni chirishiga sabab bo‘ladi.

Biz tadqiqotimizda ikkinchi usuldan foydalanib, bunda urug‘lar avvalambor 2 kun davomida toza suvga (yoki kaliy permanganatli suvga) solinib, har 12 soatda suvi almashtirilib turildi. Shundan so‘ng, ivitilgan urug‘lar nam matoga olindi va o‘rab qo‘yildi. Xona haroratida urug‘lar 4-5 kunda nish chiqardi (1-rasm).



1-rasm. Sarsabil nav va duragay urug‘larining nishlash holati

Nishlagan urug'lar oldindan tayyorlagan kassetalar yoki maxsus idishlarga 2-3 sm chuqurlikda ekildi. Unib chiqqan ko'chatlar 4-6 hafta parvarishlanib, so'ng ochiq maydonga ekildi (2-rasm). Ko'chatlar 90x20 sm ekish sxemasida ekildi.

Ko'chatzordagi o'simliklar o'suv davrida 2-3 marta azotli mineral o'g'itlar bilan oziqlantirildi hamda qatororalari chopiladi va begona o'tlardan tozalandi (3-rasm). O'simliklar ma'lum muddat parvarishlanib keyinchalik ularni katta maydonlarga ko'chirib o'tkazish mumkin bo'ladi. Ko'chatlarni tayyorlashda o'simlik ildizpoyalarini shakllanishi, ayniqsa ularning vazni inobatga olinadi. Chunki u kelajakda hosilni belgilaydi. O'simlik o'suv davri uzayib borishi ildizpoyaning sotish narxiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



2-rasm. Himoyalangan maydonda o'stirilayotgan sarsabil nihollari

Xalqaro bozorda sarsabilni ildizpoyalari ishlab chiqaruvchilar tomonidan ularni ma'lum bir sinflarga ajratilgan holda sotiladi. Bunda ildizpoyalarni sinflanishini farqlash sotib oluvchi uchun xarid xarajatlarni va hosilni (yosh novdalarni) yig'ishtirish muddatini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ularni sinflarga ajratishda o'simlik urug'idan unib chiqqandan boshlash o'suv davrining davomiyligi inobatga olinadi [12].

Hozirgi kunda sarsabilni ildizpoyalari ishlab chiqaruvchilar tomonidan o'simlik ildizpoyalari qo'yidagi sinflarga ajratiladi.

A-25 sinfidagi ildizpoyalarga urug'idan unib chiqqan va olti oy davomida vegetatsiya davrini o'tagan o'simlik ko'chatlari tashkil etadi. Bundan ildizpoyalarning og'irligi 25 grammgacha, 2-3 shakllangan kurtaklari mavjud va uzunligi 25 sm gacha yaxshi rivojlangan ildizlari bo'ladi. Ushbu sinfdagi ildizpoyalarni ekkanda odatda o'simliklardan uchinchi yilida hosil yig'ib olinadi.

A 25-40 sinfidagi sarsabil ildizpoyalariga urug'idan unib chiqqan va bir yil davomida vegetatsiya davrini o'tagan o'simlik ko'chatlari kiradi. Bu sinfdagi ildizpoyalar 25-40 grammni tashkil etib, bu katta maydonlar va aholi tomorqalarida ekish uchun eng maqbul

hisoblanadi. Odatda bir yoshli ko'chatlar yangi joyda mukammal moslashadi va yaxshi ildiz otib rivojlanadi. Boshqa sinf ildizpoyalari nisbatan iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Bu sinf ildizpoyalari ekishdan keyingi ikkinchi yilda o'simliklardan hosil yig'ib olsa bo'ladi.

A 40-75 sinfidagi ildizpoyalari ikki yillik vegetatsiya davrini o'tagan, og'irligi 40-75 gramm bo'lgan o'simlik ko'chatlari kiradi. Ushbu sinf ildizpoyalari ekilganda yetishtirish texnologiyasi qoidalariga to'liq rioya qilganda kelgusi yilda birinchi kurtaklar paydo bo'lgandan keyin, mos ravishda, bir hafta davomida hosilni yig'ib olish mumkin.



3-rasm. Ochiq maydonda o'stirilayotgan sarsabil bir yillik ko'chatlari

A 75+ sinfidagi sarsabil ildizpoyalari urug'idan unib chiqqan va uch yil davomida vegetatsiya davrini o'tagan o'simlik ko'chatlari kirib, ularning massasi 75 grammdan og'irroq bo'ladi. Ildizpoyalar ekilgandan so'ng kelgusi yilda birinchi kurtaklar paydo bo'lganidan keyin bir yarim hafta davomida birinchi hosilni yig'ib olish mumkin.

A 120+ sinfiga to'rt yillik vegetatsiya davrini o'tagan, og'irligi 120 gramm va undan ortiq bo'lgan ildizpoyalar kiradi. Ushbu sinf ildizpoyalari joriy ekish yilida (yetishtirish texnologiyasi qoidalariga to'liq rioya qilinsa) birinchi kurtaklar paydo bo'lgandan keyin bir hafta ichida, keyingi yildan boshlab 4-5 hafta davomida hosil yig'ib olinadi. Bu sinf ildizpoyalari hosil yig'ish davrida ko'proq novdalar olish imkonini beradi.

Sarsabil ko'chatlarining tayyorlashda eng muhim ko'rsatkichlardan biri tupdagi poyalar sonidir. Ya'ni yosh nihollarda qanchalik ko'p poyalar shakllansa, ildizpoyada tinim

davridagi kurtaklar shakllanadi. Bu esa ildizpoyalardan kelgusi yilda yangi (barra) novdalar ko‘proq unib chiqish imkonini beradi.

XULOSA

Asparagus officinalis L. noan’anaviy sabzavot va dorivor o‘simlik hisoblanib, bu o‘simlik respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida o‘stirishga mos hisoblanadi. Sarsabil ko‘chatlarini tayyorlashda urug‘larini xona sharoitida undirib, himoyalangan maydonlarda maxsus idishlarda ekib o‘stirish tavsiya etiladi.

Ochiq maydonga ekilgan nihollar o‘sov davrida 2-3 marta mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirilishi, qatororalarini chopish va begona o‘tlardan tozalash lozim. Parvarishlanayotgan ko‘chatlarda poyalarni to‘g‘ri shakllantirish kelgusi yilda ildizpoyalardan yangi (barra) novdalar ko‘proq unib chiqishi imkonini beradi.

REFERENCES

- GÜVENÇ, A., & KOYUNCU, M. (1999). Studies on anatomical structure of the roots of *Asparagus* species (Liliaceae) growing in Turkey. *Journal of Faculty of Pharmacy of Ankara University*, 28(1), 15-36.
- Negi, J. S., Singh, P., Joshi, G. P., Rawat, M. S., & Bisht, V. K. (2010). Chemical constituents of *Asparagus*. *Pharmacognosy Reviews*, 4(8), 215.
- Азимов Б.Ж., Азимов Б.Б., Остонақулов Т.Э., Шокиров А., Мавлянова Р.Ф. [ва бошқ.] (2023). Сабзавот, полиз ва картошка экинларида тажрибалар ўтказиш услуги: услубий қўлланма, 264 б.
- Елисеева Т., Тарантул А. (2020). Спаржа. *Asparagus - useful properties, composition and contraindications. Journal. edaplus.info - Журнал здорового питания и диетологии*, No. 4, (Vol. 14), 15-26
- Елисеева, Т., & Тарантул, А. (2020). Спаржа (лат. *Aspáragus*). *Журнал здорового питания и диетологии*, (14), 15-26.
- Журтова, З. Х. (2019). Биологические особенности развития спаржи. In *Научные труды студентов Горского государственного аграрного университета "Студенческая наука-агропромышленному комплексу"* (pp. 102-103).
- Кайтмазова, В. В. (2021). Морфологические особенности спаржи лекарственной. In *Вестник научных трудов молодых учёных, аспирантов и магистрантов ФГБОУ ВО "Горский государственный аграрный университет"* (pp. 98-101).
- Литвинов, С. С. (2011). Методика полевого опыта в овощеводстве.



8. Мавлянова Р.Ф., Шокиров А.Ж., Иброҳимов Б.А. ва бошқ. (2023) Сабзавот этиштириш: қўлланма, 224 б.
9. Нефедова, Л. М. (1992). Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве.
10. Плотников, М. Ю. (2018). Элементы технологии выращивания рассады спаржи (*Asparagus officinalis*) в условиях импортозамещения. *Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН*, (11), 103-106.
11. Поляков, В. А. (1988). Спаржа–Агротехника. *ВА Поляков-Агропромиздат..* – 35 с.
12. Рахимов А.Р. (2023) Сарсабил плантацияларини яратиш ва оналик қўчатзорларини ташкил этиш. *О‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi agrar-iqtisodiy, ilmiy-omtabor jurnali*. Maxsus son [2], 22-24.



NEFROPTOZNING ULTRATOVUSH MEZONLARI

Muxriddin Shuhratovich Usarov, Safura Ilhomovna Mamarajabova
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

ANNOTATSIYA

Buyrak ultratovush tekshiruv natijalari turli darajadagi nefroptoz bilan og'riqan bemorlarda tomirlarning dopplerografiyasi bilan birgalikda taqdim etiladi. Patologik harakatlanuvchi buyrakda gemodinamik buzilishlar aniqlandi, nefroptozli bemorlarni tashxislash va davolash taktikasini aniqlashda ultratovush tekshiruvining ahamiyati va zarurligi to'g'risida xulosa chiqarildi.

Kalit so'zlar: Nefroptoz, ultratovush, Doppler, buyrak tomirlari.

ULTRASOUND CRITERIA OF NEPHROPTOSIS

ABSTRACT

Renal ultrasound results are presented together with vascular dopplerography in patients with different degrees of nephroptosis. Hemodynamic disturbances were detected in the pathological moving kidney, a conclusion was drawn about the importance and necessity of ultrasound examination in the diagnosis and treatment tactics of patients with nephroptosis.

Keywords: Nephroptosis, ultrasound, Doppler, renal vessels.

KIRISH

Nefroptoz, patologik harakatlanuvchi buyrakni tashxislashning asosiy usullari urorentgenologik tadqiqotlardir. Nefroptoz uchun tadqiqotning yetakchi rentgenologik usuli ekskretor urografiyadir. Tibbiyotda miniinvaziv informatsion diagnostika usullaridan foydalanishning hozirgi tendentsiyalarini hisobga olgan holda, buyrak ultratovush tekshiruv buyrak tomirlarining dopplerografiyasi bilan birgalikda nefroptozli bemorlarni tekshirishning ajralmas qismiga aylandi. Nefroptozli bemorlarni tekshirishning majburiy usuli buyraklar va ularning tomirlarini vertikal va gorizontol holatda ultratovush va dopplerografik tekshirishdir.

Buyraklarning exografik tekshiruv buyraklarning joylashishini, shakllarini, konturlarini, anatomik tuzilishini baholashga, umuman buyrak hajmini, parenximani, buyrak sinusini aniqlashga, buyrak va paranefral tolaning tuzilishi va exogenligini baholashga imkon beradi. Ultratovush tekshiruvda buyraklardan tashqari, ularning tomirlariga ham

e'tibor beriladi, buning uchun turli xil dopplerografiya qo'llaniladi. Bunday holda, buyrak tomirlarining anatomiyasi (buyrak arteriyalari va tomirlari) va ularning nisbiy holati baholanadi. Uch o'lchovli rekonstruksiyadan foydalanish buyrakning butun qon tomir tizimi haqida tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi. Buyrakning qon tomir tekshirishda buyrak arteriyalari va tomirlarining diametri va uzunligi, arterial va venoz oqimning maksimal sistolik tezligi, oxirgi diastolik tezlik, sistolaga oqimning tezlashishi, sistolaga oqimning tezlanish vaqti, periferik qarshilik indeksleri – qarshilik indeksi, pulsatsiya indeksi kabi ko'rsatkichlar ham baholanadi. Dopplerografiyada qayd etilgan buyrak arteriyasidagi qon oqimining spektrogrammasi ikki fazali arra tishli egri shakliga ega. Sistolik faza juda tez ko'tarilish va juda tik tushish bilan tavsiflanadi, sistolik cho'qqining oxirida kichik tirqish mavjud. Diastolik faza uzoq, yuqori tezlikda bo'ladi.

G. I. Kuntsevich va E. A. Belolapotko (1998), V. G. Lelyuk va S. E. Lelyuk (1999) ma'lumotlariga ko'ra buyrak arteriyasining asosiy magistralining boshlang'ich qismida qon oqimining maksimal sistolik tezligi odatda 60-100 sm/s oralig'ida va 180 sm/s dan oshmaydi, diastolik tezlik taxminan 2 baravar past, qarshilik indeksi 0,56–0,70, pulsatsiya indeksi 0,7 – 1,4. Buyrak arteriyasining asosiy magistralidagi qon oqimining holatidan tashqari, ba'zi hollarda intrarenal arteriyalarda (segmentar, interlobular, boshq) qon oqimining ultratovushli spektral dopplerografiyasini o'tkazish tavsiya etiladi.

Ortostazdagi buyrak arteriyalari va tomirlarini dopplerografiya qilish usuli nefroptozda gemodinamik buzilishlarni ob'ektiv baholashga imkon beradi. Ko'pgina mualliflarning fikriga ko'ra, arteriya yoki tomirning kengayishi qon tomirlari diametrining pasayishi va ortostaz va klinostazda dopplerografiya paytida olingan gemodinamik o'zgarishlar mavjudligi, ularning klinik ko'rinishlari nefroptozni jarrohlik yo'li bilan davolash zarurligini ko'rsatadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

2022-2023 yillarda Samarqand davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida nefroptozli 80 (100%) bemorda buyrak ultratovush tekshiruvini o'tkazildi. Tadqiqotlar ultratovush apparatlarida o'tkazildi: General Electric Logic – F8, Mindray Consona N9. Doppler skanerlashda arterial va venoz qon oqimining maksimal sistolik tezligi, oxirgi diastolik tezligi o'lchandi va periferik qarshilik indeksleri (qarshilik indeksi) hisoblab chiqildi, qon oqimi nafaqat buyrak arteriyasi va venasining asosiy magistralida, balki segmentar va interlobular arteriyalarda ham baholandi. Bemorlarni o'rganish, albatta, yotgan va tik turgan holatda amalga oshirildi. Buyrak tomirlaridagi tezlik

ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarning ravshanligi uchun taqqoslash ishida qarama-qarshi sog'lom buyrakda qon oqimining tezligi ko'rsatkichlari keltirilgan.

NATIJALAR

Adabiyotga ko'ra ham, bizning tadqiqotimizda ham o'ng tomonlama nefroptoz darajasi chap tomonga qaraganda ancha yuqori bo'lgan, shuning uchun o'ng tomonlama nefroptoz bilan 62 (77,5%) bemor, chap tomonlama nefroptoz bilan – 12 (15%) va 6 (7,5%) bemorlarda ikki tomonlama nefroptoz aniqlangan. Ultratovush tekshiruv natijalariga ko'ra buyrakning vertikal holatda siljishi qayd etildi: 1) 21 (26,3%) bemorda 6 sm gacha, 2) 45 (56,3%) bemorda 6-8 sm gacha 3) 14 (17,5%) bemorda 8 sm dan ortiq. Ultratovush tekshiruvining yuqoridagi natijalari, shuningdek tekshiruv paytida aniqlangan patologik o'zgarishlar va anatomik xususiyatlar Pivotal jadvalida aks ettirilgan (jadval. 1).

Buyrak tomirlarining ultratovush tekshiruv natijalari aniqlandi: nefroptoz tomonidagi buyrak arteriyasi diametrining 63 (78,8%) bemorda ortostazda 5 mm dan kam kamayishi (rasm. 1). Klinostazda buyrak arteriyasining torayishi biroz kamroq bo'lgan, shuning uchun bizning tadqiqotimizda u 27 (33,8%) bemorda aniqlangan.

Jadval 1. Ultratovush tekshiruv natijalariga ko'ra, buyrak tushishida aniqlangan o'zgarishlar


Ultratovush belgilari	Bemorlar soni	
	n	%
Ortostazda buyrakning pastga tushishi 6 sm ga	21	26,3
6 - 8 sm ga	45	56,3
8 sm dan ziyod	14	17,5
Kosacha jom tizimi deformatsiyasi	20	25
Pieloektaziya	18	22,5
Gidronefrotik transformatsiya	8	10
Kosacha jom tizimida konkrementlar	13	16,3
Buyrak kistasi	7	8,8

Izoh: n-mutlaq son, % - foiz nisbati.

Ortostazda nefroptoz tomonida buyrak arteriyasining cho'zilishi 69 (86,3%) bemorda aniqlangan. Rangli Doppler rejimida olingan buyrak arteriyasi va uning xanjar va ortostaz segmentlaridagi qon oqimi ko'rsatkichlari natijalari 2 va 3-jadvallarda aks ettirilgan. Buyrak arteriyasida va klin va ortostazdagi segmentar arteriyalarda qon oqimining maksimal tezligining pasayishi aniqlandi (rasm 2).

Nefroptoz tomonida buyrak venasining torayishi (diametri 10 mm dan kam): klinostazda 18 (22,5%) bemorda aniqlangan; ortostazda 34 (42,5%) bemorda (rasm 3). Spektral egri chiziqlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bemorlarda ortostazda patologik harakatlanuvchi buyrakda qon oqimining monofazik spektri ustunlik qilgan (rasm. 4).

Nefroptoz tomonida buyrak venasida tezlik xususiyatlarini o'rganish bemorning yotgan va asosan tik turgan holatida buyrak venasida qon oqimining sekinlashishini aniqladi (jadval 4).



Rasm. 1. Buyrak tomirlarining ultratovush tekshiruvi nefroptoz bemorda N., 22 yoshda (a- o'ng buyrak arteriyasining diametri v holati 7,5 mm, b-v holati 3,7 mm)



Rasm. 2. Nefroptoz tomonida buyrak tomirlarining ultratovush tekshiruvi 26 yoshli bemorda rangli Doppler rejimida (a – yotgan holatda, b-tik turgan holatda)

O'ng buyrak arteriyasining asosiy magistralida tik turgan holatda (V_{max} 70,4 sm/s) qon oqimining maksimal tezligi moyil holatdagi ushbu ko'rsatkich bilan taqqoslaganda (V_{max} 111,6 sm/s) va qarshilik indeksining klinostazdagi 0,62 dan ortostazdagi 0,63 gacha o'sishi qayd etilgan.

Jadval 2. Taqqoslash uchun buyrak arteriyasida va uning segmentlarida nefroptoz tomonida (yotgan holda), shuningdek qarama-qarshi buyrakda qon oqimining tezligi (sm/s) ko'rsatkichlari

Qon oqimi spektrini olib tashlash darajasi	Qon oqimining ko'rsatkichlari					
	Qarama-qarshi buyrak			Nefroptoz		
	Vmax	Vmin	IP	Vmax	Vmin	IP
Buyrak arteriyasi o'rtacha uchligi	108,5 ± 8,4	47,4 ± 6,2	0,66 ± 0,05	92,4 ± 9,2	45,9 ± 6,0	0,65 ± 0,05
Segmentar arteriyalar	68,3 ± 5,5	34,3 ± 2,9	0,65 ± 0,05	65,9 ± 5,1	30,9 ± 2,7	0,65 ± 0,05
Interlobular arteriyalar	39,5 ± 4,2	20,6 ± 3,0	0,66 ± 0,05	35,2 ± 3,8	19,8 ± 2,9	0,66 ± 0,05

Eslatma: $p > 0.05$, farqlar ishonchli emas.


Jadval 3. Buyrak arteriyasida va uning segmentlarida qon oqimining tezligi ko'rsatkichlari (sm/s) ortostazda nefroptoz tomonida (tik turgan holda), shuningdek taqqoslash uchun qarama-qarshi buyrakda

Qon oqimi spektrini olib tashlash darajasi	Qon oqimining ko'rsatkichlari					
	Qarama-qarshi buyrak			Nefroptoz		
	Vmax	Vmin	IP	Vmax	Vmin	IP
Buyrak arteriyasi o'rtacha uchligi	101,5 ± 9,3	42,2 ± 7,0	0,66 ± 0,05	69,4 ± 9,5	37,6 ± 7,2	0,65 ± 0,05
Segmentar arteriyalar	62,3 ± 5,2	30,3 ± 3,4	0,65 ± 0,05	45,6 ± 4,9	26,9 ± 3,3	0,65 ± 0,05
Interlobular arteriyalar	33,5 ± 4,1	18,6 ± 2,8	0,66 ± 0,05	27,8 ± 3,8	14,8 ± 3,0	0,66 ± 0,05

Eslatma: $p > 0.05$, farqlar ishonchli emas.

Jadval 4. Nefroptoz tomonida buyrak venasida va klinostaz va ortostazda qarama-qarshi buyrakda qon oqimining maksimal tezligi (sm/s) ko'rsatkichlari

Buyrak venasi	Qonning maksimal oqim ko'rsatkichi	
	Qarama-qarshi buyrak	Nefroptoz
Klinostazda (yotgan xolda)	37,2 ± 4,2	34,1 ± 4,1
ortostazda (tik turgan holda)	33,7 ± 3,0	26,9 ± 3,3



Rasm. 3. Bemorning o'ng tomonidagi buyrak venasining asosiy magistralini ultratovush tekshiruv N., 37 yoshda (a-o'ng buyrak venasining yotgan holatidagi diametri 9,0 mm, b-tik turgan holatda 5,0 mm)



Rasm. 4. Nefroptoz tomonidagi asosiy buyrak venasini 29 yoshli bemorda rangli Doppler xaritasi rejimida ultratovush tekshiruv (a – yotgan holatda, b – tik turgan holatda).

Klinostazda o'ng buyrak venasining asosiy magistralida qon oqimining monofazik spektri qayd etilgan.

XULOSALAR

Biz olgan tadqiqot natijalari nefroptoz bilan buyraklardagi gemodinamikaning buzilishi haqida gapirishga imkon beradi. Shunday qilib, buyraklarning ultratovush tekshiruv tomirlarning dopplerografiyasi bilan birgalikda nefroptoz va uning asoratlarini tashxislashda muhim va zarur tadqiqot usuli hisoblanadi, shuningdek buyrak gemodinamikasining buzilish darajasini aniqlashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida yordam beradi va bemorlarni davolashning keyingi taktikasini belgilaydi.

REFERENCES

1. Аляев Ю.Г., Амосов А.В., Газимиев М.А. Ультразвуковые методы функциональной диагностики в урологической практике. Р. Валент 2001. С. 7–15.

2. Афанасьев М.Б. Ультразвуковая семиотика некоторых урогеникологического заболеваний: Дис. канд. мед. наук. / М.Б. Афанасьев/ М. 1995. С. 34.
3. Бобрик И.И. Анатомия почек человека при ультразвуковом исследовании / И.И. Бобрик, И.Н. Дугам / Врач. дело. 1991. № 5. С. 73–76.
4. Гайбуллаев Ш., Усаров М., Далерова М. НОРМАЛЬНЫЕ УЛЬТРАЗВУКОВЫЕ РАЗМЕРЫ ЖЕЛЧНОГО ПУЗЫРЯ И ОБЩЕГО ЖЕЛЧНОГО ПРОТОКА У НОВОРОЖДЕННЫХ //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 142-148.
5. Alimdjanovich, R.J., Obid , K., Javlanovich, Y.D. and ugli, G.S.O. 2022. Advantages of Ultrasound Diagnosis of Pulmonary Pathology in COVID-19 Compared to Computed Tomography. Central Asian Journal of Medical and Natural Science. 3, 5 (Oct. 2022), 531-546.
6. Хамидов О. А., Гайбуллаев Ш. О., Хакимов М. Б. ОБЗОР МЕТОДОВ ОБРАБОТКИ ИЗОБРАЖЕНИЙ ДЛЯ ДИАГНОСТИКИ ПАТОЛОГИИ ГОЛОВНОГО МОЗГА: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 10. – №. 5. – С. 181-195.
7. Хамидов О. А., Гайбуллаев Ш. О., Хомидова Д. Д. РОЛЬ УЛЬТРАЗВУКА И МАГНИТНО-РЕЗОНАНСНОЙ ТОМОГРАФИИ В ОЦЕНКЕ МЫШЕЧНО-СУХОЖИЛЬНЫХ ПАТОЛОГИЙ ПЛЕЧЕВОГО СУСТАВА //Uzbek Scholar Journal. – 2023. – Т. 12. – С. 125-136.
8. Yakubov D. Z., Gaybullaev S. O. The diagnostic importance of radiation diagnostic methods in determining the degree of expression of gonarthrosis //UZBEK JOURNAL OF CASE REPORTS. – С. 36.
9. Ахмедов Якуб Амандуллаевич; Гайбуллаев Шерзод Обид угли; Хамидова Зиёда Абдивахобовна. МРТ В СРАВНЕНИИ С ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ АРТРОСКОПИЕЙ КОЛЕННОГО СУСТАВА ДЛЯ ОЦЕНКИ РАЗРЫВОВ МЕНИСКА. Tadqiqotlar 2023, 7, 105-115.
10. Хамидов, О. А., Жураев, К. Д., & Муминова, Ш. М. (2023). СОНОГРАФИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА ПНЕВМОТОРАКСА. World scientific research journal, 12(1), 51-59.
11. Khasanova Diyora Zafarjon kizi, Khamidov Obid Abdurakhmonovich and Juraev Kamoliddin Danabaevich 2023. SYMPHYSIOPATHY AND PREGNANCY. "Conference on Universal Science Research 2023". 1, 2 (Feb. 2023), 55–60.
12. Yusufzoda Hosiyat Turon kizi, Khamidov Obid Abdurakhmonovich and Juraev Kamoliddin Danabaevich 2023. DIAGNOSIS OF CHANGES IN PREGNANT WOMEN WITH VULVOVAGINITIS.



"Conference on Universal Science Research 2023". 1, 2 (Feb. 2023), 51–55.

13. Obid, K., Servetovna, A. A., & Javlanovich, Y. D. (2022). Diagnosis and Structural Modification Treatment of Osteoarthritis of the Knee. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(5), 547-559.

14. Yakubov D.J., Turanov A.R. and Baymuratova A.C. 2022. Possibilities of contrast-enhanced ultrasound tomography in the diagnosis of metastatic liver lesions in patients with cervical cancer. Journal the Coryphaeus of Science. 4, 4 (Dec. 2022), 80–88.

15. Usarov M.Sh, Otakulov Z.Sh and Rakhmonkulov Sh. H. 2022. Contrast-enhanced ultrasound in the differential diagnosis of focalnodular hyperplasia and hepatocellular liver adenoma. Journal the Coryphaeus of Science. 4, 4 (Dec. 2022), 70–79.

16. Nurmurazayev Z.N.; Suvonov Z.K.; Khimmatov I.Kh. Ultrasound of the Abdominal Cavity. JTCOS 2022, 4, 89-97.

17. Якубов Д. Д., Давранов И. И., Шодикулова П. Ш. ХАРАКТЕРИСТИКИ МСКТ И ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ COVID-19 ПРИ БЕРЕМЕННОСТИ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 22. – №. 1. – С. 165-176.

18. Khudayberdiyevich Z. S. et al. Possibilities and Prospects of Ultrasound Diagnostics in Rheumatology //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 570-582.

19. Babajanovich K. Z., Abdurakhmanovich K. O., Javlanovich Y. D. Ultrasound and MSCT as the Next Step in the Evolution of the Examination of Patients with Ventral Hernias //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 583-591.

20. Amandullaevich A. Y., Abdurakhmanovich K. O. Organization of Modern Examination Methods of Mammary Gland Diseases //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 560-569.

21. Akbarov S. et al. VALUE OF US AND DOPPLEROMETRY IN CHRONIC PYELONEPHRITIS OF PREGNANT WOMEN //Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 26-29.

22. Юсуфзода Х. и др. ОПТИМАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ СИНДРОМА МИРИЗЗИ //Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 21-25.

23. Нурмурзаев, З. Н., Жураев, К. Д., & Гайбуллаев, Ш. О. (2023). ТОНКОИГОЛЬНАЯ АСПИРАЦИОННАЯ ЦИТОЛОГИЯ ПОД УЛЬТРАЗВУКОВЫМ КОНТРОЛЕМ В ДИАГНОСТИКЕ ЗАБРЮШИННЫХ ОБРАЗОВАНИЙ:

ИССЛЕДОВАНИЕ 85 СЛУЧАЕВ. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 126–133.

24. Хамидов , О. , Гайбуллаев , Ш. и Давранов , И. 2023. СРАВНЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ УЗИ И МРТ В ДИАГНОСТИКЕ ПОВРЕЖДЕНИЙ МЕНИСКА КОЛЕННОГО СУСТАВА. Евразийский журнал медицинских и естественных наук. 3, 4 (апр. 2023), 176–183.

25. Khamidov Obid Abdurakhmanovich, Davranov Ismoil Ibragimovich, Ametova Alie Servetovna. (2023). The Role of Ultrasound and Magnetic Resonance Imaging in the Assessment of Musculo-Tendon Pathologies of the Shoulder Joint. International Journal of Studies in Natural and Medical Sciences, 2(4), 36–48. Retrieved from <https://scholarsdigest.org/index.php/ijsnms/article/view/95>

26. угли, Н. З. Н., Шухратович, У. М., Хуршедовна, А. С. and Фаёзович, В. Ф. (2023) “Роль Ультразвука В Оценке Повреждения Мениска”, Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 4(2), pp. 588-595. doi: 10.17605/OSF.IO/M5HZP.

27. Жавланович, Я. Д., Амандуллаевич, А. Я., Зафаржонович, У. З., & Павловна, К. Т. (2023). Мультипараметрическая МРТ В Диагностике Рака Предстательной Железы. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 4(2), 577-587. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/MQDHP>

SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA BO‘SH VAQT FAOLIYATINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Azamat Maqsudovich To‘rayev

Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda o‘smir-yoshlarning rasmiy bo‘lmagan makon-bo‘sh vaqtni tashkil qilishiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar, vaqtdan unumli foydalanish muammolari, bo‘sh vaqtni uslubiy jihatdan tog‘ri tashkil qilishning o‘smir yoshlarning shaxs sifaida shakllanishi va ijtimoiylashuvdagi ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘sh vaqt, ijtimoiylashuv, “ijtimoiy ta’lim”, ijtimoiy rollar, ijtimoiy talablar, media muhit, farovonlik, zamonaviy o‘smirlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiylashish muammolari

ABSTRACT

In our three articles, the social demands placed on the organization of informal space-free time by teenagers, the problems of efficient use of time, the personal characteristics of teenagers and the proper organization of free time from a methodological point of view. its importance in socialization has been studied.

Keywords. leisure time, socialization, "social education", social roles, socials, media environment, well-being, modern teenagers, social demands, social problems, social problems

KIRISH

Dunyoning bir qator taraqqiy etgan mamlakatlarida ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida “bo‘sh vaqt” tushunchasi, uning mazmuni, shakllarini o‘rganish va undan unumli foydalanish mexanizmlarini yaratish bo‘yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar ishlari olib borilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda maktab o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil qilishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, maktabdan tashqari bo‘sh vaqtini oqilona tashkil qilishda ta’lim muassasalari, madaniy-ma’rifiy tashkilotlarning rolini yanada oshirish, ijtimoiy-huquqiy asoslarni yanada mustahkamlah bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maktab o'quvchilarida yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari mahalliy olimlardan O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Matchonov, M.Quronovlar tomonidan o'rganilgan.

MDH tadqiqotchilaridan V.G.Bocharova, V.Z.Vulfov, A.N.Leontiev, A.V.Mudrik, Ye.M.Gorenkov, A.Ya.Jurkina, L.A.Permakov va boshqalar tomonidan o'smir-yoshlarning shaxs sifatida shakllanishidagi asosiy muammolar, maktabdan tashqari o'quvchilarining bo'sh vaqtida sinfdan tashqari mashg'ulotlarining shakllari, tarbiyaviy ahamiyati va bu boradigi muammolar bo'yicha tizimli tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy olimlardan M.Parmentye, S.Hellokamps, F.Shmeydr, G.Spenser, R.Sorokin va boshqalar o'smir yoshlarda o'z-o'zini tarbiyalash muammolari, olmon olimlaridan L.Veber, B.Myuller, V.Xornshteyn, B.Engholm kabi olimlar bo'sh vaqtning shaxs takomilidagi funksiyalari, roli bilan bog'liq muammolarni o'rganganlar. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'smir yoshlarning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida bo'sh vaqt faoliyatining ahamiyati xususida ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Tadqiqot ishida tarixiylik, analiz, sintez, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Bo'sh vaqt shaxsga mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyatlarini tiklashga yordam beradi. Psixologik, pedagogik va ijtimoiy tahlillar zamonaviy bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqt faoliyati qattiq tartibga solinganligi, qarama-qarshilikga to'la ekanligini ko'rsatadi. Maktab o'quvchilarning bo'sh vaqtini oqilona tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ish holati qoniqarli emas. Sababi aksariyat maktab binolarida to'garak yoki ijodiy ish bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoit mavjud emas. Maktablarning ko'pchiligida ikki smenada ish olib borishi, o'qituvchilarning yuqori darajada bandligi bunga xalaqit beradi. Maktab o'quvchilarini shaxs sifatida rivojlantirish, tarbiyalash, ijtimoiylashish muommolarini hal etishda dars va darsdan tashqari faoliyatidagi shaxsiy ishini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada bo'sh vaqtni boalning asosiy huquqlaridan biri sifatida e'lon qilingan.

O'smir yoshlar faoliyatida vaqtni boshqarish muammosi o'z vaqtini ijtimoiy talablar va shaxsiy manfaatlariga muvofiq tashkil etish qobiliyati bilan bevosita bog'liq. Ta'limdan tashqari vaqtda rasmiy bo'lmagan bo'sh vaqt makonida har bir o'smir o'z oldiga qanday

maqsadlar qo'yishini, unga erishish imkoniyatlari va buning uchun vaqtni qanday taqsimlash, qanday faoliyat shakllari bilan band bo'lishi muhimligini bilishlari zarur. Sababi, aksariyat hollarda katta avlod tomonidan taklif qilinadigan bo'sh vaqtni o'tkazish shakllari bolalarning manfaatlari, qiziqishlari, ularning individual xususiyatlariga mos bo'lmasligi mumkin. O'smirlar bo'sh vaqtining rasmiy bo'lgan vaqt makonidan ahamiyatli tomoni shundaki, ular faoliyatida ixtiyoriylik, erkinlik va mustaqillik tamoyillari asosida harakatlanish erkinligining mavjudligi o'zlarini turli xil ijtimoiy rollarda sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

V.Z.Dulikovning fikricha, shaxsning rivojlanishida faqat atrof-muhit emas, balki shaxs shakllanishining g'oyaviy va qadriyat muhiti, ya'ni, ijtimoiy muhitda ma'naviy-axloqiy, ijodiy va intellektual iqlim asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega[2].

Shaxsning ijtimoiylashuvida bo'sh vaqtdagi faoliyatining ahamiyati haqida mulohaza qilar ekanmiz, mazkur jarayonda ijtimoiy tarbiya jarayon va natija sifatida shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish, hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy tarbiya shaxsning ijtimoiy voqelikga munosabatini shakllantiradi va uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy tarbiya borasida rus tadqiqotchisi A.V.Mudrikning fikrlari ahamiyatlidir. U "ijtimoiy ta'lim"ni bolalar va o'smirlarni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirishga qaratilgan maxsus tashkil qilingan ta'lim shakli, ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas qismi sifatida ta'riflaydi [4].

Shu o'rinda ijtimoiy ta'limning vazifalari jamiyatning muayyan ehtiyojlari, ijtimoiy tartib, madaniy maqsad, hamda tarixiy vaziyatdan kelib chiqadi. Shu jihatdan ijtimoiy tarbiya shaxsni shakllantirishda vosita, usul va shakllar majmuasidan foydalanishda tizimlilikni talab qiladi. Bo'sh vaqtni to'g'ri shakllantirish o'smir-yoshlarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'sh vaqt texnologiyalari asosida ijtimoiylashuv jarayonida:

- bolalar va o'smirlarning havaskor ijodiy tashabbuslarini rivojlantiriladi;
- bo'sh vaqt ijtimoiy moslashuvning ko'p bosqichli jarayonining asosi bo'lib xizmat qiladi;
- bolalar va o'smirlarda barqarorlik va o'zini o'zi himoya qilishning psixologik yo'llarini shakllanadi;
- o'z-o'zini hurmat qilish ko'nikmalarining shakllanishi va ochiq mikro jamiyatda o'zini o'zi boshqarish va hokazo [3].

Ijtimoiy tarbiya jarayonida bolalarning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy munosabatlari shakllanadi, hamda o'smirlarning o'z-o'zini anglashi yuz beradi. Bu esa o'z navbatida o'smirlarning aqliy faoliyatiga restorativ ta'sir qiladi. Sport va sog'lomlashtirish

yoʻnalishi bolalar va oʻsmirlarning salomatligi, hayotiyliigi va jismoniy qobiliyatlari, sogʻlom turmush tarziga rioya qilishi, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalari oʻsmir-yoshlarning koʻpchiligi “boʻsh vaqt” ni “oʻyin va dam olish” vaqti sifatida taʼriflashi aniqlashtirildi. Boʻsh vaqt rasmiy boʻlmagan ixtiyoriy vaqt makoni hisoblanadi. Vaqtdan unumli foydalanish oʻsmirlarning bugungi va ertangi farovonligiga bevosita hissa qoʻshadi. Farovonlik uchta asosiy oʻlchov bilan aniqlanadi:

1. Sub'ektiv farovonlik.
2. Psixologik farovonlik.
3. Ijtimoiy farovonlik.

Casas va Lopez fikricha sub'ektiv farovonlik gedonik nuqtai-nazardan hayotdan qoniqishni baholashni oʻz ichiga oladi. Psixologik farovonlik oʻz-oʻzini anglash jarayonlarida inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik holat. Ijtimoiy farovonlik shaxslararo munosabatlardan qoniqishni bildiradi.

Olimlar ijtimoiylashuv sodir boʻladigan va shakllanish amalga oshiriladigan uchta sohani aniqladilar:

- faoliyat
- muloqot;
- oʻzini-oʻzi anglash[5].

Ijtimoiylashuv samaradorligining asosiy natijasi oʻsmir-yoshlarning ijtimoiy rollar va vazifalarni oʻzlashtirishi, “jamiyatning faol aʼzosi” ga aylanishi, oʻz-oʻzini nazorat qila olishi, boʻlib, bu muommoni birinchilardan E.Dyurkeym koʻrib chiqqan. Ijtimoiylashuv samaradorligi sifatida “bolaga koʻnikmalarini singdirishi” ni tushunganlar.

Agar shaxs zarur rollar, jamiyat tasdiqlangan qadriyatlar, ijtimoiy normalar hatti-harakatlarni oʻzlashtirishi.

Tadqiqot bilan bogʻliq bir qator ilmiy muommolar mavjud:

- ijtimoiylashuv samaradorligining aniq mezonlari berilmagan;
- ijtimoiylashuvning samaradorligi haqida juda kam tadqiqotlar amalga oshirilgan;
- ijtimoiylashuvning samaradorligini aniqlashning qiyinligi;
- jarayonning yaxlitligi va koʻpqirraliligi bilan bogʻliq.

Zamonaviy adabiyotlarda ijtimoiylashuvning turli shakllari koʻrib chiqiladi. Ijtimoiylashuv ijtimoiy muhit taʼsirida insonda maʼlum bir fazilatlarining oʻz-oʻzidan shakllanishi. Bunda shaxs uchun qarindoshlari, doʻstlari, atrofidagi yaqin kishilari muhit hisoblanadi. Oʻsmirlardagi ijtimoiylashuvni passiv ijtimoiylashuv va faol ijtimoiylashuv kabi

turlarga ajratish mumkin. O‘smirni sub‘ektivlik, shaxsiy ishtirok, qiziqish asosida yaxshi natijalarga erishishga intilish, muayyan faoliyatga jalb qilish jarayoni. Passiv sotsializasiya har qanday faoliyatda o‘smirlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon qilishda faol ishtirokini anglatmaydi. Offlayn ijtimoiylashuv- bu real makondagi ijtimoiylashuv. Onlayn ijtimoiylashuv- internet makonidagi ijtimoiylashuv. Shaxs ko‘nikmalarini rasmiy va norasmiy ta‘lim turlarida amalga oshirishi mumkin. Faol ijtimoiylashuv o‘quvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlariga jalb qilinganida muhim faoliyat yo‘nalishlarni amalga oshirishida namoyon bo‘ladi. Norasmiy ta‘limda ijtimoiylashuv samaraliroq bo‘ladi. Sababi o‘smirning bilim, ko‘nikma va malakalarini, shuningdek odatlarini, atrofdagi voqelikga munosabatini bildirish shakllanadi. Bu o‘zini muvaffaqiyatli amalga oshirish, ijtimoiy rollarni rivojlantirish va kamolotga erishishini ta‘minlaydi. Shaxs ko‘proq kattalardan tajriba orttirish yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali o‘rganadi. Passiv sotsializasiyada shaxs ma‘lum bir sohada sezilarli faollik ko‘rsatmaydi, lekin yashirin o‘rganishni oladi. Zamonaviy o‘smirlarni ijtimoiylashtirishning eng muhim media muhitning xususiyatlari tahlil qilindi. Axborotni iste‘mol qilishda tanqidiy yondashuv, ya‘ni iste‘mol madaniyatining shakllanishi muhim. Yo‘qsa deviant xulq-atvorning va huquqbuzar hatti-harakatlarga befarqlik (desenibilizasiya), o‘smirlik davrida buzg‘unchi shaxsning rivojlanishi kabi holatlar yuz berishi mumkin [6].

AQShning Virjiniya universiteti professori J.Anettening fikricha “Boshqa agentlardan farqli ravishda ommaviy axborot vositalarini ijtimoiylashtirish o‘smirlarga ularni qiziqtirgan ma‘lumotlarni tanlash ularning o‘z-o‘zini ijtimoiylashtirishni rag‘batlantiradi”. Bir tomondan ommaviy axborot vositalari o‘smirlarning shaxsiyatini ko‘proq ochishga, ularning ijtimoiy ufqlarini kengaytirishga yordam beradi, boshqa tomondan, uning ta‘sirida turli xil manipulativ amaliyotlar qurboni bo‘lish xavfi ortadi. O‘sib kelayotgan avlodga berilayotgan bugungi e‘tibor, shubhasiz, ertangi taraqqiyotga zamin bo‘ladi.

Zamonaviy sosiologik va psixologik tadqiqotlarda dam olish shakllari passiv va faol turlarga bo‘linadi. Dam olish faoliyatining xususiyatlari uning shaxs uchun ixtiyoriy tabiatga egaligi, manfaatsizlik va shuningdek, insonning o‘zini o‘zi ifoda etishga bo‘lgan ehtiyojning muvofiqligi hisoblanadi[1].

A.A. Anreevaning so‘zlariga ko‘ra, o‘smirni qiziqtirish unchalik qiyin emas, saqlash va rivojlantirish nihoyatda qiyin. Ya. Strelsov bo‘sh vaqtni alohida intellektual va hissiy holat holat, alohida “tafakkur” sifatida tushunadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, vaqtdan foydalanish va o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishlari ularning hayotiy sharoitlari bilan bog‘liq. O‘smirlarning irqi, jinsi, yashash joyi,

ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bo'sh vaqtni tashkil qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu borada dunyo mamlakatlaridagi holatni tahlil qiladigan bo'lsak, Ekvadorda ayollar erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'p haq to'lanmaydigan uy ishlari bilan band bo'lishadi. Markaziy Osiyoda ham bo'sh vaqtdan foydalanishda gender farqlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, o'smir yoshdagi qiz va o'g'il bolalar bo'sh vaqtdagi mehnat taqsimotida katta farqlar mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, erkak va ayollarning bo'sh vaqtdagi mehnat taqsimoti o'smirlik davridayoq mustahkamlanadi. O'smirlarning bo'sh vaqtlaridan foydalanishlarida gender tafovutni sezish qiyin emas. Jumladan, o'g'il bolalar ko'proq sport musobaqalarida ishtirok etishi qizlarga nisbatan kengroq uchraydi. Qiz bolalarning bo'sh vaqtlari o'g'il bolalarga nisbatan kamroq. Jismoniy mashqlar jismoniy va ruhiy salomatlikga, yetakchilik qobiliyati, jamoada ishlash va chidamlilik ko'nikmalarining shakllanishi, hamda, o'z-o'zini hurmat qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bo'sh vaqt - o'smir uchun turli qobiliyatlarni egallash, ularning umumiy rivojlanishi va avtonomiyalarini amalga oshirishda muhim. Demak, bo'sh vaqt bu-shaxsiy o'sish, ijod qilish, dam olish va jamiyatda ishtirok etishidir[7]. Qizlar zimmasiga tushadigan haq to'lanmaydigan mehnat yuklari o'g'il bolalarnikiga nisbatan ko'p. Kam ta'minlangan oilalarda bo'sh vaqt o'z hohishlari bo'yicha o'tkazishlari bo'yicha imkoniyatlari cheklangan.

XULOSA

O'smirlar bo'sh vaqtlari nafaqat o'ziga xos manba, balki, o'zining ma'naviy-jismoniy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiylashuv jarayonining muhim qismidir. Bo'sh vaqt ularga oiladan tashqari muloqat qilish imkoniyatini, kattalar roliga kirish, kelajakda kattalar kabi shaxsiyatini rivojlantirish va bunda talab qilinadigan ko'nikmalarni amalda qo'llash, o'z manfaatlarini ifoda etish, tengdoshlari orasida o'z munosabatlarini qurish kabi imkoniyatlarni beradi. Bu harakatlar, shuningdek o'smirlarga o'z-o'zini anglashlariga, ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Demak, bo'sh vaqt o'z-o'zini rivojlantirish, yaratish (ijodkorlik), dam olish, jamiyat hayotida samarali ishtirok etish, hamda majburiyatlardan ozod makon bo'lib, hayotda yangi ko'nikmalar, qadriyatlar, bilim va ko'nikmalarni egallash, turli imkoniyatlar makonidir. Bu makondagi shart-sharoitlar farzandalarimizning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Акимова Л.А. Социология досуга: Учебное пособие/ Л.А.Акимова; МГУКИ.М., 2003.-123с.



2. Дуликов В.З. Организованный процесс в социкультурной сфере: Учебное пособие /В.З.Дуликов.М.,2003.-87с.
3. Капустина Н.М. Базовая культура личности Текст.: Методические рекомендации/Н.М. Капустина. Киров: ВГГУ, 2002. -22с.
4. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику/А.В.Мудрик; под ред. Д.И.Фельдштейна.2-е.изд.М.: Московской психологосоциальный институт, 2009.—568 с.
5. Н.А.Затирко.Особенности социализации подростков в условиях современной школы. -Р.21-23.
<https://elib.bspu.by/bitstream/doc/40912/1/%D0%9D.%20%D0%97%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BA%D0%BE.pdf>
6. Харрис Р. Психология массовых коммуникаций. СПб.: Прайм-Еврознак, 2002. 448 с. 5. Arnett J. Adolescents' Uses of Media for SelfSocialization // Journal of Youth and Adolescence. 1995. Vol. 24. № 5. P. 519–533
7. 2010).https://repositorio.cepal.org/bitstream/handle/11362/40760/1/S1601046_en.pdf

O‘QUVCHI-YOSHLAR MA’NAVIY TAFAKKURINI TARBIYALASHDA MAKTAB VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGINING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI

Dilrabo Ibrohim qizi Rahmonova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika va psixologiya mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlar ma’naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab va jamoatchilik hamkorligining jamiyatga tutgan o‘rni, maktab va jamoatchilik hamkorligining vazifalari, pedagogik hamkorlik asosida tarbiyalashning usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, tafakkur, pedagogik hamkorlik, oila, mahalla, ta’lim muassasasi, pedagogik hamkorlik texnologiyasi.

ABSTRACT

This article talks about the role of school and public cooperation in the society, the tasks of school and public cooperation, methods of education based on pedagogical cooperation.

Keywords: spirituality, thinking, pedagogical cooperation, family, neighborhood, educational institution, technology of pedagogical cooperation.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardan o‘q, har tomonlama uyg‘un rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalash milliy tarbiyamizning bosh maqsadi sifatida belgilab olindi. O‘quvchi-yoshlarda sog‘lom, ma’naviy tafakkurni shakllantirish haligacha o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Hammaga ma’lumki, yuksak ma’naviy tafakkurga ega bo‘lib ulg‘aygan avlod mamlakatni har tomonlama gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shadi. Ma’naviy tafakkur tushunchasiga ta’rif berishdan oldin, “ma’naviyat”, “tafakkur” so‘zlarining ma’nolarini alohida tahlil qilib chiqish lozim. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “ma’naviyat”, “tafakkur” so‘zlariga quyidagicha ta’rif berilgan: **“Ma’naviyat – arabcha, axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar. Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmui.”**

Demak, ma’naviyat- axloqqa, tarbiyaga doir so‘z ekan.

Ma'naviyat- insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi.

“Tafakkur- arabcha- fikr yuritish, o'ylash, fikrlash. Ob'ektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash”. Tafakkurni qadimdan barcha olimlar va faylasuflar tadqiq etib kelishgan, uni falsafa va mantiq nuqtai nazaridan o'rganib chiqishgan. Insoniyat mavjudki, doimo tarbiyaga muhtoj. Mamlakat kelajagi yoshlarning qanday tarbiyalanganligi bilan belgilanadi. Hozirgi kunga kelib, ta'lim-tarbiya jarayonida e'tibor qaratilayotgan eng muhim masalalardan biri - bu o'quvchi-yoshlarda sog'lom fikrlashni, ma'naviy tafakkurni darsda va darsdan tashqari vaqtlarda keng jamoatchilik fikriga suyanan holda rivojlantirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYALAR

Bizga ma'lumki, o'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- oila;
- ota-ona munosabatlari;
- oiladagi sog'lom tarbiya va sog'lom muhit;
- ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya jarayoni;
- tengdoshlar jamoasi;
- mahalla muhiti.

Oila-murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, bolaning sog'lom ma'naviyatli, yuksak madaniyatli bo'lib kamol topishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini. Oilalar birlashib jamiyatni tashkil qiladi, shu sababli, har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini inson tafakkuri va aqliy salohiyati, ma'naviyati va madaniyati belgilab beradi. Insondagi ushbu hislatlar bevosita ta'lim dargohida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois ham, yosh avlodlarga ta'lim-tarbiya berish, ularning intellektual bilimlarini, tafakkurini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash dolzarb ijtimoiy ehtiyojlardan sanaladi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: “Nima uchun o'quvchi-yoshlarda ma'naviy tafakkurni tarbiyalash kerak?”. Jamiyatda sodir bo'layotgan bir qancha buzg'unchilik, o'g'irliklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu noxush voqealarni albatta, jinoyatchilar, o'g'ri-yu, bezorilar sodir qiladi. Shu bezorilar, o'g'rilar ham vaqtida bola bo'lgan, lekin ular yaxshi tarbiyalanmaganligi, ma'naviy tafakkuri shakllanib vatanni anglamaganligi sababli shu holga kelib qolgan. Darhaqiqat bolaga kerakli vaqtda berilmagan tarbiya, e'tibor vaqti kelib jamiyatda juda katta muammolar paydo bo'lishiga olib

keladi. Bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanish faqatgina oilaning ya’ni ota-onaning vazifasi emas, chunki, bola oiladan tashqari ta’lim muassasida, mahallada ham vaqt o‘tkazadi. Xalqimizda shunday naql bor: ” Bir bolaga yetti mahalla, ota-ona”. Bejizga ajdodlarimiz bu naqlni aytishmagan. Bolaning kamol topishida hamma birdek javobgar hisoblanadi. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu jinoyatlarning tub zamirida qarovsizlik, vaqtni behuda sarflash, nazoratsizlik kabi beparvoliklar tashkil qiladi. O‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish, ularni turli mashg‘ulotlarga jalb etish oila-mahalla-maktab hamkorligi uzviy amalga oshirilgandagina yaxshi yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

O‘quvchi-yoshlar oiladan olgan tarbiyasidan tashqari, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar tomonidan ham ta’lim-tarbiya oladi. Maktab davri ulg‘ayotgan o‘quvchi-yoshlar uchun tayanch fazilatlarni shakllantiruvchi davr hisoblanadi. Ayni shu vaqtda o‘quvchilarda axloqiy tarbiyani, ma’naviy tafakkurni tarbiyalash mumkin. Yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash, ularni mamlakat kelajagiga ishontirish, milliy-ma’naviy tarbiya ruhida tarbiyalash, ma’naviy tafakkurini shakllantirish masalalari oila, mahalla va maktab hamkorligining bosh vazifalari hisoblanadi. O‘quvchi-yoshlarni ma’naviy jihatdan komil bo‘lib yetishini nazorat qilishda mahallaning roli muhim ahamiyatga ega. Chunki, qadimdan o‘zbek xalqi mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘shnilar bilan birdamlikda yashab kelgan. Biror bir ishni mahalla maslahatisiz qilmagan.

Ta’lim muassasasi va jamoatchilik hamkorligi asosida o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy tafakkurni tarbiyalashda uzluksiz ta’lim jarayonida davlat va jamoatchilik tashkilotlarining boshqaruvini takomillashtirishni, ularning ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir doirasini yanada kengaytirish lozim.

“Pedagogik hamkorlik- pedagogik maqsad asosida tashkil etilgan, muayyan dastur asosida tartibga solingan, o‘quvchilarning sifatli ta’lim-tarbiya olishida mas’ul, ularni rivojlanish jarayonida qo‘llab-quvvatlovchi va muayyan darajada javobgar asosiy tarkibiy tuzilmalarning o‘zaro faol ijtimoiy harakatdan iborat uyushmasidir.” Maktab va jamoatchilik hamkorligi asosida o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tafakkurni tarbiyalash texnologiyasini ishlab chiqishda shu kungacha qo‘llanilgan ta’lim va tarbiya texnologiyalaridan foydalandik. Texnologiyani bayon etish uchun dastlab kutiladigan natija, natijadan kelib chiqib qo‘yilgan maqsad hamda faoliyat vazifalariga to‘xtalib o‘tish lozim.

Maqsad:	Maktab va jamoatchilik hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda ma'naviy tafakkurni tarbiyalash va rivojlantirish.
Pedagogik vazifalar:	1) O'quvchi-yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish orqali ularning ma'naviy tafakkurini tarbiyalash; 2) Sinfda va sinfdan tashqari ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarni, to'garaklarni tashkil qilish orqali o'quvchilar tafakkurini tarbiyalash; 3) kino, teatr, muzey, konsert tomoshalariga o'quvchilarni sayrga olib chiqish.
Kutiladigan natija:	Pedagogik hamkorlik (maktab va jamoatchilik) asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalash.

Maktab va jamoatchilik hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashning texnologik modeli.

Ushbu texnologik modelda belgilangan pedagogik vazifalar samarali yo'lga qo'yilsa, maktab o'quvchi-yoshlarining ma'naviy tafakkuri yanada kengayadi.

XULOSA

Pedagogik hamkorlik dolzarb muammo sifatida o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash jarayonining samaradorligini baholash va sifat o'lchamini aniqlash orqali o'quvchi-yoshlar tarbiyasida "maktab va jamoatchilik" hamkorligining ta'sir doirasini o'rganishga imkon beradi.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda asosiy xalqa vakillarining birlikdagi mas'uliyati, javobgarligi hamda qo'llab - quvvatlashi asosidagi ma'naviy hamjihatligiga bog'liq bo'lib, o'quvchi shaxsini rivojlantirish nafaqat ta'lim tashkiloti balki maktabdan tashqari tarbiyaviy ta'sirlarning mushtarak ta'minlab beruvchi mahalla jamoatchiligi yordamisiz amalga oshmaydi.

O'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini hamkorlik asosida tarbiyalashni sifat jihatdan baholashda hamkorlik asosida tarbiyalashning huquqiy asosini tahlil qilish, har bir hamkor tomonning vakolatlarini o'rganib chiqish muhim bosqich hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Toshkent, 566-bet
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Toshkent, 14-bet
3. Abdullayeva G.A. “O‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogik hamkorlik kvalimetriyasi” diss.ishi. Toshkent-2023. 65-bet
4. R.A.Mavlonova, B.Normurodova., Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanma.
5. Dilrabo Rahmonova “Sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etish” Educational and pedagogical sciences



BANKLARDA EKOLOGIK VA IJTIMOYIY RISKLARNI BAHOLASH ZARURIYATI

Shamsiddin Akram o'g'li Karimov

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada banklar tomonidan ajratilgan kreditlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik va ijtimoiy risklar, shuningdek, uning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli ekologik tahdidlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: risk, ekologik va ijtimoiy risklar, kredit riski, ekologik tahdidlar.

ABSTRACT

In this article, the environmental and social risks that may arise in loans provided by banks, as well as various environmental threats that may arise as a result of it, are mentioned.

Keywords: risk, environmental and social risks, credit risk, environmental threats.

KIRISH

Risk muqarrar va inson hayotining barcha jabhalarida, jumladan, bank sohasida keng tarqalgan. Bank ishi noaniqlikka to'la biznes sifatida ko'riladi, chunki u osonlikcha oldindan aytib bo'lmaydigan muhitda olib boriladi. Banklar, ayniqsa, mijozlarga kredit berishda bir qancha moliyaviy risklarga duch kelishadi. Turli tadqiqotlar moliyaviy risklarni quyidagilarga ta'riflaydi: kredit riski, bozor riski, yuridik risk, operatsion risk, likvidlik riski, daromad darajasi riski, valyuta riski va kapitalni boshqarish riski. Shuningdek, atrof-muhit va iqlim bilan bog'liq xavflar va moliyaviy bozorning beqarorligi bo'yicha adabiyotlar soni ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy yoki atrof-muhit resurslarining kamayishi yoki ifloslanishi korxonalar va moliya institutlari uchun iqlim xavfi yoki ekologik xavfga aylanishi mumkin.

Iqlim muammolari bilan bog'liq eng tezkor xavflar jismoniy xavflardir. Jismoniy risklar moliyaviy institutlarga, xususan uy xo'jaliklari, banklar va sug'urtachilarning mulkiga (aktivlariga) zarar etkazish orqali moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi va bilvosita



global ta'minot zanjirlarini buzish yoki resurslar tanqisligiga olib keladi.

Birgina misol sifatida, bugungi kunda dunyoning yirik shaharlarida, jumladan, Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanish darajasi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bunga tabiiy va antropogen omillar sabab bo'lmoqda.

Xususan, poytaxt atmosfera havosining ifloslanishiga quyidagi omillar ta'sir etmoqda. Jumladan:

1. Toshkentda yashil hudud kamaygan. Jumladan, daraxtlar va butalarning kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 49 mingga yaqin daraxtlar noqonuniy kesilgan.

2. Shaharsozlik bosh rejalari tasdiqlanmasdan, qurilish ishlari betartib amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkent shahrida bir necha marotaba qurilish ishlarini amalga oshirmaslik bo'yicha moratoriy e'lon qilingan bo'lsada, qurilishlar hanuzgacha davom etmoqda.

3. Avtotransport vositalari soni ortib bormoqda. Transport vositalarining ekologik darajasi, foydalanilayotgan yoqilg'i va yo'l harakatini tashkil etish sifatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Jumladan, Respublika bo'yicha avtomobillar soni 2021-yilda 3,14 mln donani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ularning soni 4,6 mln donaga yetdi. Bugungi kunda Toshkent shahrida bir kunda o'rtacha 730 mingta avtotransport vositasi harakatlansa, qo'shimcha ravishda hududlardan 160 mingdan 300 mingga avtotransport vositasi kirib kelmoqda. Xalqaro standartlarga to'g'ri kelmaydigan A-80 markali benzindan foydalanayotgan texnika vositalari esa atmosferaga me'yoridan ortiq zararli tashlamalar chiqarmoqda.

4. Shaharlarda transport va piyodalar oqimining kesishmalari soni kamaytirilmagan, magistrallardagi yuklama darajasi pasaytirilmagan, transport oqimi tarkibini, tezlik rejimini tartibga solish sikli optimallashtirilmagan, yo'l harakatini to'g'ri tashkil etilmagan. Natijada Toshkent shahrida tirbandlik holatlari ko'p kuzatilmoqda. Tirbandlikda to'xtab turgan avtomobil esa harakatlanayotgan avtomobilga nisbatan atmosferaga ko'proq tashlama chiqaradi.

5. Iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energiya resurslariga bo'lgan talabi ortishi natijasida uglevodorodlardan, jumladan, ko'mir yoqilg'isidan foydalanish hajmi ortmoqda. Xususan, 2019-yilda 3,9 mln tonna ko'mir yoqilg'isidan foydalanilgan bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 5,3 mln tonnaga, 2023-yil yakuniga ko'ra esa 6,7 mln tonnaga yetgan. Ko'mir yoqilg'isini qazib olish, tashishdan to foydalanishgacha bo'lgan jarayonda ajralib chiquvchi ifloslantiruvchi moddalar esa atrof-muhit, jumladan, atmosfera havosi, tuproq va suv resurslarining ifloslanishiga olib kelmoqda.

Ma'lumot uchun, 10 tonna ko'mir yoqilg'isi yoqilganida atmosfera havosiga 220 kg qurum, 360 kg oltingugurd II oksidi, 64 kg uglerod oksidi, 16 kg azot II oksidi va 2 tonna kul chiqindisi ajralib chiqadi.

6. Kuz-qish mavsumida aholiga markazlashgan issiqlik yetkazib berish uchun mavjud Issiqlik markazlari tomonidan qo'shimcha yoqilg'i sifatida mazut yoqilg'isidan foydalanish atmosfera havosining keskin ifloslanishiga hamda aholini e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, birgina Toshkent shahridagi mavjud 6 ta issiqlik markazlarining 9 ta qozonxonalarida dekabr oyida 3 ming tonna mazut yoqilg'isidan foydalanilgan.

7. Toshkent havosi ifloslanishiga shamol yo'nalishi va tezligi, havo harorati, quyosh radiyasi, atmosfera yog'inlarining miqdori va davomiyligi, harorat inversiyalari (vertikal bo'yicha aralash zarralarning tarqalib ketishiga to'sqinlik qiluvchi iliq havo qatlami) va boshqa tabiiy omillar ham sabab bo'lmoqda. Toshkent shahri tog'lar bilan o'ralgan va chuqurlikda joylashgan. Shu sababli shamol aylanmasligi hisobiga chang havo oqimi shaharda turib, dimlanib qoladi va tabiiy yo'l bilan chiqib ketmaydi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda Ekologiya vazirligi tomonidan respublika hududida atmosfera havosini muhofaza qilish borasida qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha 1- va 2-toifali sanoat korxonalarida chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatiladi, mavjudlari rekonstruksiya hamda modernizasiya qilinadi.

Shuningdek, mazkur hududlarda atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarni kuzatish postlari joriy etiladi, atrof-muhit monitoringini amalga oshirish uchun esa avtomatik stansiyalar o'rnatiladi. Bu o'z navbatida atrof-muhit holatlarini raqamlashtirish orqali sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli moddalarni kuzatish, tahlil qilish, bartaraf etish va ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga imkon beradi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyining o'zida O'zbekistonda 5 trillion so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. Qayd etilishicha, 2023-yilning 1-fevral holatiga ko'ra, O'zbekistonda qurilish bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 45 591 tani tashkil etadi. Xususan, yanvar oyida 426 ta yangi qurilish korxonalarini tashkil etilgan.

Qurilish korxonalarining eng katta qismi, ya'ni 9 166 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 20,1 foiz Toshkent shahrida joylashgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan ekologik tahdidlar va ijtimoiy muammolarga sabab bo'luvchi sohalarni moliyalashtirishning asosiy manbaai bu shubxasiz banklar hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud banklar tomonidan 2023-yilning 11 oyi davomida 382 trln so‘m miqdorida yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22 foizga ko‘p kreditlar ajratilgan.

1-jadval

Tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi

Ko‘rsatkichlar nomi	01.12.2022 y.		01.12.2023 y.		O‘zgarishi, foizda
	mlrd.so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	382 078	100%	465 493	100%	22%
Sanoat*	126 472	33,1%	137 150	29,5%	8%
Qishloq xo‘jaligi	40 372	10,6%	47 291	10,2%	17%
Qurilish sohasi*	10 101	2,6%	12 530	2,7%	24%
Savdo va umumiy xizmat	29 122	7,6%	31 590	6,8%	8%
Transport va kommunikatsiya*	28 450	7,4%	33 819	7,3%	19%
Moddiy va texnik ta‘minotni rivojlantirish	3 810	1,0%	3 740	0,8%	-2%
Uy-joy kommunal xizmati	1 835	0,5%	1 788	0,4%	-3%
Jismoniy shaxslar	97 698	25,6%	146 709	31,5%	50%
Boshqa sohalar	44 218	11,6%	50 878	10,9%	15%

1-jadval ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak aynan ekologik havflarni keltirib chiqaruvchi sohalarga jami kredit qo‘yilmalarning qariyb yarmi (43,1 foiz) to‘g‘ri kelmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tahdidlar bilan bir qatorda banklar tomonidan ekologik va ijtimoiy risklarni baholash hozirgi kunda dolzarb mavzularda biriga aylanib bormoqda.

Ma‘lumot uchun, bank tizimida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 2023-yil 1-oktabr holatiga 3,7 foizni (16,8 trln so‘m) tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1 foiz bandga pasaygan.

Bunda, korporativ kreditlarning NPL qismi mos ravishda 0,5 foiz bandga pasayib, 4,2 foizni, chakana kreditlarda esa 2 foiz bandga pasayib, 2,6 foizni tashkil etgan. (1-rasm).



1-rasm. Muammoli kreditlarning qarzdor turlari bo'yicha kredit qoldiqlari turlari

Kredit qo'yilmalarida NPL ulushi tarmoqlar qirqimida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishda 9,2 foiz, savdo va umumiy xizmat sohasida 7,7 foiz, qurilish sohasida 7,6 foiz, qishloq xo'jaligida 5,7 foiz va sanoat sohasida 3,6 foiz darajasida shakllangan.

Shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan tarmoqlar kesimida NPL ulushi uy-joy kommunal xizmatlar sohasida 3,3 foiz bandga oshgan bo'lsa, qurilish sohasida 2,4 foiz bandga, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 0,9 foiz bandga hamda qishloq xo'jaligida 0,6 foiz bandga pasaygan.




2-rasm. Muammoli kreditlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

Tijorat banklari kredit portfelidagi NPLning ulushi bo'yicha guruhlanganda 24 ta bankda 3 foizgacha (bank tizimi jami aktivlarida ulushi 40 foiz), 4 ta bankda 3,1 foizdan 5 foizgacha oraliqda (bank tizimi jami aktivlaridagi ulushi 43 foiz) va 7 ta bankda 5,1 foizdan yuqori bo'lib, ularning jami aktivlardagi ulushi 17 foizni tashkil etgan.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi sohaviy qurilish-pudrat tashkilotlari reytingi e'lon qilindi. Unda O'zbekistonda faqat bitta kompaniya yuqori (75 foiz) ishonchlilik darajasiga ega deya ko'rsatilgan.

To'rtta toifaga bo'lingan reytingdan jami 17 647 ta kompaniya o'rin olgan. Eng ishonchli kompaniyalar "A" toifasiga kiritilgan.



3-rasm. O'zbekistondagi qurilish kompaniyalarining ishonchlilik reytingi

E'lon qilingan diagrammaga ko'ra, reytingdagi eng ishonchlilar ro'yxatiga 75 foizli ko'rsatkich bilan faqat bitta kompaniya kiritilgan.

Quyida daraja — "D" toifasidan 14 668 ta kompaniya o'rin olgan. Bu reytingdagi jami kompaniyalarning 83 foizi demak.

Bank o'z faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi global qadriyatlarni targ'ib etishga, mehnat munosabatlariga, atrof-muhit muhofazasiga ma'suliyatli yondashishga, ilg'or tajribalar, Xalqaro moliya institutlarining qo'llanma hujjatlari va Global barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ixtiyoriy ravishda ekologik va ijtimoiy majburiyatlarni oladi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqiy va qonunchilik hujjatlarida banklarning ekologik majburiyatlarini belgilovchi quyidagi qoidalar mavjud:

Bank atrof-muhitni muhofaza qilish talablari va ekologik samaradorlik standartlariga javob bermaydigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashmaydi.

Bank tomonidan davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lmagan loyihalarni moliyalashtirish va kreditlashga yo'l qo'ymaslik;

tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini ustuvor moliyalashtirish.

Bank ekologik va ijtimoiy risklarni va salbiy ta'sirlarni aniqlash hamda ularning oldini olish, minimallashtirish yoki kompensatsiya qilish choralarini o'z vaqtida rejalashtirish va amalga oshirish uchun qarz oluvchilar faoliyatini va moliyalashtiriladigan loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholashni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Bank o'z resurslarini atrof muhitga jiddiy zarar yetkazishi va jiddiy ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan loyihalardagi va sohalardagi konsentratsiyasini kamaytirish uchun oqilona va iqtisodiy maqsadga muvofiq harakatlar qiladi va istisnalar ro'yxatiga kiritilgan ayrim faoliyat turlarini moliyalashtirmaydi.

Bank madaniy va tarixiy meros ob'ektlarining hozirgi va kelajak avlodlar uchun muhim rolini e'tirof etadi va ularni himoya qilishni o'zining moliyalashtirish faoliyatida ta'minlaydi. Bank madaniy va tarixiy meroslarni, qonun bilan himoya qilinishi yoki qilinmasligidan qat'iy nazar, ularni himoya qilishdan manfaatdor.

Bank o'z faoliyatida ekologik va ijtimoiy boshqaruv samaradorligini doimiy ravishda oshirish majburiyatini oladi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi va

o'zgartirilishi, shu jumladan uning faoliyatini doimiy ravishda ichki baholash natijasida aniqlangan va barqaror rivojlanish sohasida erishilgan natijalar bilan taqqoslanishi kerak.

Bank tomonidan qarz oluvchilarga quyidagi ekologik va ijtimoiy talablar qo'yiladi:

Bankning istisnolar ro'yxatiga kiritilgan faoliyat bilan shug'ullanmaslik;

atrof muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlari, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va boshqa ijtimoiy jihatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, davlat standartlari va me'yorlariga rioya qilish;

Bankning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida belgilangan hollarda XMIlarning IESlari talablariga va Jahon banking atrof-muhit, sog'liqni saqlash va mehnatga oid qo'llanmalariga muvofiq biznes faoliyatini olib borish va kompleks loyihalarni amalga oshirish;

ekologik risklarni minimallashtirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan zamonaviy texnologiyalar, uskunalar va materiallarni joriy etish orqali inson va atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;

ijtimoiy risklarning oldini olish, kamaytirish va ijtimoiy javobgarlikni oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

faoliyatni amalga oshirish va loyihalarni Bank tavsiyasiga binoan tashkil qilishda ilg'or ekologik va ijtimoiy tajribalarni joriy etish va qo'llash.

Bankning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Boshqaruv tomonidan Investitsiya va kredit qo'mitalari orqali amalga oshiriladi. Siyosatni amaliy tatbiq qilish Bankning Risk menejment departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bank o'z moliyaviy imkoniyatlarini oshirish bilan bir qatorda jamiyat manfaatlari, shuningdek, atrof-muhit va ijtimoiy nuqtai nazardan tabiat oldida barcha singari javobgar ekanligini inobatga olib, soha va tarmoqlarga ajratiladigan har qanday kredit mablag'larini ajratilishini qat'iy nazoratga olishi lozim. Shuningdek, "yashil tabiat" doirasida ajratiladigan kreditlar uchun asosiy foiz stavkalariga nisbatan kamaytirilgan (2-5 foiz) foiz stavkalarida ajratish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati haqida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 14-iyuldagi 2696 “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”qarori.
6. Antwi va boshqalar. / Xalqaro moliya va bank tadqiqotlari jurnali, 9-jild № 3, 2020



UMUMTA'LIM MUASSASALARI BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA KASBIY BILIMLARGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Shuhrat Alimamatovich Babajanov

Toshkent viloyati Angren shahar 14-DMTT direktori

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'yinli o'qitish texnologiyalari, ularning qisqacha mazmuni va tarixi hamda o'quvchilarda kasbiy tushunchalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari haqida tahliliy fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'yinli o'qitish texnologiyasi, o'yin, kasbiy tushunchalar, "g'oyalar banki", didaktik o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari.

ABSTRACT

This article provides an overview of the technology of game teaching, its contents and history, and the potential for creating professional concepts in students.

Keywords: game teaching technology, game, professional concepts, "idea bank", didactic games, business games.

KIRISH

Har qanday ta'lim jarayoni o'zaro bir-birini taqozo etuvchi "o'qitish-o'qish" faoliyatini ko'zda tutadi. Bunda, o'quv fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchi faoliyati ikki tomonlama xususiyatga ega, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularni qo'llashning amaliy ko'nikma hamda malakalarini o'zlashtirish. Ular ta'lim jarayonida birlashadi va bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi.

Bizga ma'lumki, pedagogik jarayon rivoji jamiyatning iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq. Ishlab chiqarish jarayoni jamiyat rivojining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarda turli kasbga oid tushuncha va bilimlarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Mazkur muammoni ijobiy hal etishda ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish lozim.

[2, 10 b]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli kasblarga nisbatan qiziqishini oshirishda avvalo, ularda kasbiy bilimlarga oid dastlabki tushunchalarni shakllantirish shart. Kichik sinf o'quvchilarining yosh va individual-psixologik rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda kasbiy bilimlarga oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishda o'yinli o'qitish texnologiyasidan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Quyida, ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari xususida to'xtalib o'tamiz.

O'yin - bu ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Bunda ishtirokchilar o'rtasida rollar taqsimoti aniq belgilanib, har bir vazifa xususiyati keltiriladi. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning asosiy xususiyati – o'quv-biluv faoliyatiga yo'naltirilgan o'qitish maqsadi va unga mos keluvchi pedagogik natijaning aniq qo'yilishidir.

Har bir o'yinli texnologiyalar quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat:

- motivatsion;
- maqsadga yo'nalganlik;
- mazmunli-tashkiliy;
- baholashga doir;
- qadriyatga yo'nalganlik. [1, 72 b.]

O'yinli texnologiyalarning rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrning 60-yillari boshidan AQSHda, so'ngra boshqa G'arb mamlakatlarida ishchanlik (ishbilarmonlik) o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishbilarmonlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejamli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi — aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usul “g'oyalarni banki” deb ham nomlangan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi:

- muammoli vaziyat yaratish;
- g'oyalarni shakllantirish;
- eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va tanlash.

Guruh ishtirokchilariga muammoni aniqlash va uni yechish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy xujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda o'quvchilarning tayyorgarliklari qanchalik yuqori ekanligi asosiy omil hisoblanadi. [3, 81 b.]

Ishbilarmonlik o'yinlari quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

I. Tayyorlov bosqichi: a) o'yinni ishlab chiqish; b) o'yinga kirishish.

II. O'tkazish bosqichi: a) topshiriq ustida guruh bilan ishlash; b) guruhlararo munozara

III. Tahlil bosqichi: a) o'yinni yakunlash; b) tahlil; c) ishni baholash va o'ziga baho berish; d) xulosa va umumlashtirish; e) tavsiyalar ishlab chiqish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda kasbiy bilimlarga oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishda quyidagi o'yin texnologiyasidan foydalanishi mumkin.

“Kasbni toping?” deb nomlanuvchi o'yin texnologiyasining tuzilishi

O'yinning maqsadi. O'quvchilarni kasblarning xususiyatlari, mazkur kasbga oid tushunchalar bilan tanishtirishdan iborat. O'yindan o'quvchilar xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi kasblar bilan tanishtirishda foydalaniladi.

O'yinning sharti. O'yin sinf bilan ishlashga mo'ljallangan (3-4 sinf va katta yoshdagi o'quvchilar uchun). O'yinning dastlabki ijrosi 10-15 daqiqaga mo'ljallanadi. O'yinda sinf doskasi, kasblar ro'yxati aks ettirilgan jadvaldan foydalaniladi. O'yin g'oliblarini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqiladi. Agar kasblarni topish bilan bog'liq savollarga javob berishda 10 ta xatoga yo'l qo'yilsa, ular mag'lubiyatga uchragan sanaladi. O'yin yakunida g'oliblar aniqlanadi.

O'yinning diagnostik imkoniyatlari. O'quvchilarning kasblar to'g'risida bilimlarni va kasblarni tahlil etishga o'rganganligini aniqlashga yordam beradi.

O'yinda uchraydigan qiyinchiliklar. “Kasbni toping?” o'yini nisbatan ancha murakkab o'yin sanaladi. Shu sababli, o'yin davomida ishtirokchilar mag'lubiyatga ko'p uchrayversalar, bunga odatlanib qoladilar. Natijada o'yinning ahamiyati yo'qoladi. Agar o'yin ijrosi yaxshi chiqmasa, ikkinchi bora o'yinni tashkil etish kerak emas. Agar topshiriqqa murakkab kasbga asosiy tushunchalar taqdim etilsa, uning ba'zi bandlar bo'yicha tavsiflash qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun tavsiflash qiyin bo'lgan bandlar boshqalari bilan almashtirish lozim bo'ladi.

O'yinni takomillashtirish istiqbollari. O'yinni rivojlantirishning eng maqbul yo'li va kasblarni tasniflashning eng optimal yo'llarini topishdan iborat. Shuningdek, o'yinni o'tkazish tartibini takomillashtirish ham lozim.

O'yin bosqichlari. Tayyorlov bosqichi: o'yindan oldin o'quvchilar “kasblar ro'yxati” bilan tanishtiriladi. Bunda faqat jadvalda aks ettirilgan kasblar tushuntirilib qolmasdan, balki bir necha kasblar sinf bilan birgalikda muhokama qilinadi. O'quvchilarni o'yinning ijro etishga tayyorlash kerak.

1. Sinfning oldida kasblar ro'yxati yoki kasblarni tahlil etish jadvali turishi lozim.

2. Guruh a'zolarining ixtiyoriga ko'ra uch kishilik guruhchalar tashkil etiladi.

3. Umumiy yo'nalish berish: "Hozir uch kishi auditoriyadan chiqib ketadi. Ular sinfxona uchun kasblar bo'yicha topishmoq tayyorlaydilar va taqdim etadilar. So'ngra tashqaridagi uch kishi sinfxonaga kiradi. Sinf a'zolarining har biri 3-5 daqiqa davomida kasbning tahlil etish chizmasi bo'yicha ularni kuzatadi. 3-5 daqiqadan so'ngra topishmoqni taqdim etuvchilar guruhchalarning a'zolaridan birini tanlaydi. Tanlangan o'quvchi sinf doskasida kasbga oid asosiy xususiyatlarni tahlil etish bo'yicha o'zini variantini taqdim etadi.

Kasbni tahlil etish chizmasini kengaytirilgan varianti taqdim etiladi. Mazkur variant 3-4 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Har bir guruhga bir necha kasb nomlari yozilgan kartochkalar taqdim etiladi. O'quvchilar kartochkalarda yozilgan kasblarga tavsif beradilar. Qolgan guruh ishtirokchilari esa bu qaysi kasb ekanligini topishlari lozim bo'ladi. Bunda o'quvchilar tomonidan kasbga oid tushunchalardan ko'proq foydalanishi lozimligi ta'kidlanadi.

Shundan keyin kasbni topuvchi har bir ishtirokchi bitta imkoniyatga ega va 1 daqiqadan so'ngra o'zining javob variantini taqdim etadi. Agar, guruhning bitta variantidan bitta to'g'ri bo'lsa, guruh g'olib sanaladi.

4. Topganlar sinfxonadan tashqariga chiqadilar. Ular ham sinfdagilar uchun topishmoq taqdim etadilar.

5. Boshlovchi topishmoq taqdim etuvchilarni sinfxonaga taklif etadi Ular auditoriyaning kasblar tahlil etish sxemasi bo'yicha topishmoq sinfga taqdim etadilar.

6. Topishmoqni topish guruhchalardan bittadan ishtirokchi tanlab olinadi.

7. So'ngra bir daqiqa davomida ular o'zlarining javob variantlarini taqdim etishlari lozim bo'ladi.

8. Ularning kasbni topgan va topmaganliklari baholanadi. Buning uchun topishmoq sifatida taqdim etilgan kasb nomi aytiladi.

O'yinni muhokama qilish. Boshlovchi kasbni tahlil etish chizmasining har bir bandi bo'yicha sinf bilan birgalikda doskada yozilgan uchta variantning to'g'ri va noto'g'ri javoblarini aniqlaydi.

XULOSA

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yinli o'qitish texnologiyalaridan fanning mohiyatidan kelib chiqib to'g'ri tanlanib, maqsadli foydalanilsa quyidagi ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin: 1) o'quvchilarda bilim olishga nisbatan qiziqishning oshishi; 2) o'qitish jarayonini hamkorlikda tashkil etish; 3) o'quvchilar tomonidan ijtimoiy tajribalarning o'zlashtirilishi; 4) kichik guruhlarda ishlash

ko'nikmasining hosil bo'lishi; 5) o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi va boshqalar.

REFERENCES

1. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T.: 2001.
2. Avazboev A.I., Ismadiyrov U.Ya. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – TOSHKENT-2014, 10 b.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: 2008, 81 b.
4. Пидкасистый П.И., Хайдаров Ж.С. Технологии игры в обучении и развитии. – М, 1996.
5. Internet ma'lumotlari.

TOROIDAL PROPERTIES OF ELECTROMAGNETIC WAVE PACKETS IN ATOMIC AND NUCLEON ORBITALS

Ruzumboy Eshchanov

Professor, Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

ruzimboy@gmail.com

ABSTRACT

Current article demonstrates that quantum physics explains the atom by distributing the electron in the atomic orbital as a cloud of electromagnetic waves, while the laws of electron motion in the atom are completely absent. The paradox lies in the very primary hydrogen atom in the electrical interaction of charges. The electron should fall into the nucleus and discharge, but this does not happen, why? In accordance with the laws of electrostatics, the absence of attraction between negative and positive charges is possible only if one of the particles lacks a charge or changes it to the opposite one. Such problems, physics not knowing what a charge is, will not allow the charges to change and therefore solve the problem.

The axis of rotation can intersect with a circle, in which case the torus is called closed. The toroidal shape can be changed into a spherical, hemispherical and sectorial-spherical shape, so the toroidal shape of the electron orbital in atoms is in good agreement with the laws of physics, and it can explain all the exceptions in atom formation. Information about the nucleon orbital is provided.

Keywords: quantum physics, electron, atom, orbital, paradox, toroid, positron, gamma, waves, torus, electromagnetic wave packet (EMWP), cut, magnetic field, electrically neutral, stable, stationary, neutron, orbit, gamma wave, right thread, closed, uninterrupted, uniformly, stationary, stable, nucleon orbital, high frequency, very, small, length, wave, charging, properties, insensitive, spin, summation, external, internal, surface, exhibits, neutron.

Quantum physics explains the atom by distributing the electron in the atomic orbital as a cloud of electromagnetic waves, but the laws of electron motion in the atom are completely absent. The paradox lies in the very primary hydrogen atom in the electrical interaction of charges. The electron should fall into the nucleus and discharge, but this does not happen, why? In accordance with the laws of electrostatics, the absence of attraction between negative and positive charges is possible only if one of the particles lacks a charge or changes it to the opposite one. Physics, which does not know what a charge is, cannot allow a change in charges and therefore hushes up the problem. This corresponds to the toroidal property of photon, electron, positron and gamma electromagnetic waves.

The toroid is what controls many aspects of science, technology, technology, and in life the toroid exists in all atoms and cosmic bodies such as planets, stars, and galaxies, that is, it is the main form of existence of matter and electromagnetic waves.

The axis of rotation can intersect a circle, in which case the torus is called closed. The toroidal shape can transform into spherical, hemispherical and sector-spherical shapes, thereby the toroidal shape of the electron orbital in atoms is in good agreement with the laws of physics and can be explained, all exceptions in the case of the formation of atomic nucleon orbitals.

A torus is a surface rotation that is obtained by helical rotation; it is formed in the form of a circle around the axis of the electromagnetic package of a photon, electron, positron, gamma waves, around atoms, and also in nucleons.

In tori, the movement of the electromagnetic wave packet is helical and, depending on the direction, forms an electron, positron and gamma waves; the atom consists of an electron shell and a nucleus. The nucleus consists of protons and neutrons.

Electromagnetic wave packets of photon, electron, positron and gamma study in atomic and nucleon orbitals are a toroid. Using the properties of waves, we constructed an electromagnetic wave packet of EMWP: closed, uninterrupted, uniform, stable, stable, the existence of energy in free and atomic, nucleon orbitals in a transformed state [1]. (Figure 1).



Figure 1. EMWP of photon, electron, positron and gamma waves

A wave that has a threaded movement along the axis of the spiral determines the charge in the electromagnetic wave packet (EMWP), which has a closed, spiral-shaped, uninterrupted, uniform and stable EMWP [2]. Let us consider the toroidal properties of the EMWP of a photon, electron, positron and gamma wave.

A torus consisting of an electromagnetic wave packet (EMWP) can be mathematically described in coordinates (Figure 2), where R is the axial radius of the torus, and r is the radius of the EMWP around the torus axis.

Let's compose a parametric equation of the torus. To do this, we rotate a circle around an axis, defined on the plane by the parametric equation

$$x = R + r \cos v,$$

$$z = r \sin v,$$

$$0 \leq v \leq 2\pi, \text{ where } R > r \text{ given}$$

numbers.




Figure 2. Mathematical function of toroid formation

When rotating through an angle u , counterclockwise around the axis Oz , the point of a given circle $M_0(R + r \cos v, 0, r \sin v)$ passes into a point of the torus $M(x, y, z)$. It is easy to see that during this rotation the third coordinate does not change, i.e. $z = r \sin v$, besides this, the points M_0 and M , are equally distant from the Oz axis, and this distance is equal to $R_1 = R + r \cos v$. Then $x = R_1 \cos u$, $y = R_1 \sin u$, i.e. $x = (R + r \cos v) \cos u$, $y = (R + r \cos v) \sin u$. Thus, we have derived the parametric equation of the torus

$$\begin{aligned} x &= (R + r \cos v) \cos u, \\ y &= (R + r \cos v) \sin u, \\ z &= r \sin v, \\ 0 &\leq u \leq 2\pi, \quad 0 \leq v \leq 2\pi. \end{aligned}$$

To derive the equation of a helical spiral on a torus, we define the internal equation of a helical spiral of a toroid $u = t, v = kt$, where $0 \leq t \leq 2\pi$. Then the equation of the helical spiral of the toroid is as follows

$$\begin{aligned} x &= (R + r \cos kt) \cos t, \\ y &= (R + r \cos kt) \sin t, \\ z &= r \sin kt, \\ 0 &\leq t \leq 2\pi. \end{aligned}$$

To make the helical spiral of the toroid denser, you should choose a number k large enough.

Let us consider the toroidal shape of the electromagnetic wave packet of the electron with the left-threaded EMWP of the electron in a magnetic field.

Let's virtually place one screw of a spiral-shaped electron electromagnetic force in an NS magnetic field with a left-hand threaded electromagnetic force (Figure 3).






Figure 3. Cut of one turn of the toroid EMWP of an electron in a magnetic field

As can be seen from the figure, the cut of one turn of the electromagnetic wave of an electron with a left-hand thread in a magnetic field is charged $-\frac{1}{2}$ and $+\frac{1}{2}$, this is explained by the fact that the EMWP that began at the N point of the magnetic field has a charge $-\frac{1}{2}$ and when moving to the point S in a magnetic field, the charge is zeroed and changes the direction of the vector in the opposite direction, thereby charging $+\frac{1}{2}$, which makes the electron neutral in relation to itself.

Now let us consider the toroidal cut of the electromagnetic field of an electron in a magnetic field. We make a virtual slice of the EMWP into half of the toroid (Figure 4). As can be seen from the figure, the EMWP is a closed, uninterrupted, uniform, stable electromagnetic wave. When the movement is closed, the EMWP changes the direction of the vector in relation to the field in strict accordance with the left part of the toroid slice discussed above, and the right part of the toroid slice changes its vector in the magnetic field, thereby the charge of the toroid appears opposite and becomes a mirror to the left part of the slice.




Figure 4. Toroidal cut of EMWP of electrons in a magnetic field

As can be seen from the figure, the toroidal EMWP is charged negatively on the outside, and positively on the inside of the toroid (Figure 5).




Figure 5. Charging properties of the toroid EMWP electron

This property of the toroidal EMWP answers the question of why the electron does not fall into the nucleus over time and is stable

in the Bohr orbit of the atom; the figure shows the spin and charging properties of the electron in the toroid.

As can be seen from the figure, the toroidal EMWP of electrons on the outer surface of the toroid in a magnetic field is negatively charged and, accordingly, on the inner surface of the toroid it is positively charged, thereby the electron in the atomic orbital manifests itself as electrically neutral, which gives the property of stationarity of the transformed EMWP of the electron in the atomic orbital.

Now let's discuss the cut of one turn of an EMWP positron with a right-handed thread in a magnetic field (Figure 6).




Figure 6. Section of one turn of the toroid of an EMWP positron in a magnetic field

As can be seen from the figure, the cut of one turn of the electromagnetic wave of a positron with a right-handed thread in a magnetic field is charged $-\frac{1}{2}$ and $+\frac{1}{2}$, this is explained by the fact that the EMWP that began at the N point of the magnetic field has a charge $-\frac{1}{2}$ and when moving to the point S in a magnetic field, the charge is reset to zero and changes the direction of the vector in the opposite direction, thereby charging $+\frac{1}{2}$, which makes the positron neutral in relation to itself.

Now let us consider a slice of the toroidal shape of the EMWP of a positron in a magnetic field (Figure 7).




Figure 7. Toroidal section of the EMWP of a positron in a magnetic field

As can be seen from the figure in the toroidal EMWP of a positron, the outer surface of the toroid in a magnetic field is charged positively and, accordingly, on the inner surfaces the toroid is charged negatively, thereby the transformed positron in the nucleon orbital of the proton is electrically neutral, which gives the property of stability and stationarity in nucleon nucleons (Figure 8).




Figure 8. Charging properties of the EMWP positron toroid

Now let's discuss right-handed gamma waves in a magnetic field, they are the same as positron, but the charge of the gamma wave due to the high frequency and short wave is not sensitive, but there is a spin charge of gamma electromagnetic waves in the toroid (Figure 9).




Figure 9. Toroidal cut of electromagnetic waves of gamma waves in a magnetic field

Also, the cut of the toroidal EMWP of gamma waves manifests itself as electrically neutral due to the spin nature of the EMWP of the gamma wave. The toroid of the gamma EMWP is also electrically neutral and stable, stationary in the neutron orbit, the gamma wave with the right threaded EMWP is closed, uninterrupted, uniformly stationary and stable in the nucleon orbitals (Figure 10).




Figure 10. Charging properties of the toroid EMWP gamma waves

As can be seen from the figure, the charging properties of the gamma wave are insensitive due to the high frequency and very short wavelength, but the spin of the gamma wave is summed over the outer and inner surface of the toroid and exhibits the spin properties of the neutron.

There is a report in the literature about the positron, positronium (Ps) is a system consisting of an electron and its antiparticle, the positron, bound together into an exotic atom, in particular, a bow [3]. Unlike hydrogen, there are no protons in the system. The system is unstable: the two particles

annihilate each other, producing predominantly two or three gamma rays, depending on their relative spin states. The energy levels of the two particles are similar to the energy levels of a hydrogen atom (which is the bound state of a proton and an electron). However, due to the decrease in mass, the frequencies of the spectral lines are less than half the frequencies of the corresponding hydrogen lines (Figure 11).




Figure 11. Positronium (Ps)

Positronium created in such an excited state will quickly transition to the ground state, where annihilation will occur more quickly.

Based on the above, the following postulate can be made:

The toroidal properties of the photon, electron, positron and gamma waves make them electrically neutral, thereby keeping them stable and in a stationary state in atomic orbitals and nuclei.

REFERENCES

1. R.A.Eshchanov, 2023. A new look at the structure of the nucleus and the atom. *Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi* 5(1), pp.244-251.
2. R.A.Eshchanov, 2023. The theory of transformation in nucleon protons and atomic orbitals. *Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi* 2(1), pp.174-195
3. Wikipedia, 2024. Positronium. Web page from free online encyclopedia. Available on: <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Positronium> [Accessed on 12 January 2024]

SO‘ZLASHUV NUTQI VA YANGI LUG‘AVIY BIRLIKLARNING PAYDO BO‘LISHI

Baxromjon Baxtiyor o‘g‘li Jo‘raboyev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada til tizimlari ichida yangi leksik birliklarning rivojlanishida nutqiy aktlarning o‘rni haqida so‘z boradi, shuningdek, standart me‘yorlar va innovatsion lingvistik iboralar o‘rtasidagi dinamikaga alohida e‘tibor beriladi. Unda leksikaning so‘zlovchining predmetlarga bo‘lgan subyektiv munosabatini neologizmlar va okkazializmlar orqali ifodalash, tashqi qo‘zg‘atuvchilarga emotsional holat va psixologik reaksiyalarni aks ettirishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Tadqiqotda tahlil uchun material sifatida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida neologizmlar va stilistik jihatdan ko‘p qirrali tasodifiy so‘zlardan foydalanilgan. Shu bilan bir qatorda, madaniy an‘analar, miflar va tarixiy rivoyatlarni o‘zida mujassam etgan yangi leksik birikmalarning semantik mazmunini tushunishda kognitiv lingvistikaning ahamiyati ta‘kidlangan va shu orqali tilning milliy o‘ziga xosligini ochib berilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: nutqiy aktlar, leksik birliklar, neologizmlar, okkazionalizmlar, kognitiv tilshunoslik, til innovatsiyasi, so‘zlashuv tili, semantik mazmun, madaniy an‘analar.

ABSTRACT

The article focuses on the role of speech acts in the development of new lexical units within language systems, emphasizing the dynamics between standard norms and innovative linguistic expressions. It discusses the significance of lexicon in expressing the speaker's subjective relationship to objects through neologisms and occasionalisms, reflecting emotional states and psychological reactions to external stimuli. The study utilizes neologisms and stylistically versatile occasional words from German conversational language in the late 20th and early 21st centuries as materials for analysis. The research underlines the importance of cognitive linguistics in understanding the semantic content of new lexical items, which incorporate cultural traditions, myths, and historical narratives, thereby revealing the national uniqueness of a language.

Keywords: speech acts, lexical units, neologisms, occasionalisms, cognitive linguistics, language innovation, conversational language, semantic content, cultural traditions.



KIRISH

Tilshunoslikning rivojlanayotgan sohalarida nutqiy harakatlar va leksik innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tadqiqotning asosiy sohasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada ushbu murakkab munosabatlarni o'rganib chiqilib, nutq harakatlari nafaqat muloqotni osonlashtirishi, balki yangi leksik birliklarning paydo bo'lishi uchun qulay zamin bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda o'rnatilgan til me'yorlari bilan neologizm va okkazializmlarning ijodiy kuchi o'rtasidagi dinamik ziddiyatni o'ylagan, tilning inson tajribasini aks ettirish va shakllantirishning nozik usullari yoritib beriladi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarini qamrab olgan nemis so'zlashuv tilini batafsil tahlil qilish orqali tadqiqot lingvistik innovatsiyalar genezisidagi kognitiv jarayonlarning muhim rolini ta'kidlagan. Madaniy rivoyatlar va urf-odatlar ichiga singib ketgan yangi leksik birikmalarning semantik boyligini o'rganish milliy tillarning o'ziga xos xususiyati haqida chuqur ma'lumot berishga harakat qilgan.

Nutq harakatlari va lingvistik innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tilshunoslik sohasida katta e'tiborni tortdi, bu tilning ijtimoiy va kognitiv omillarga javoban rivojlanishiga kengroq qiziqishni aks ettiradi. Olimlardan J.L.Ostin nutq aktlarining asosiy kontsepsiyasini kiritgan bo'lsa, J.R.Searl tilning ijro xarakteri leksik tuzilmalardagi o'zgarishlarni katalizlashi mumkinligini ta'kidlab, uni yanada kengaytirgan. G.Lakoff va M.Jonson metaforaning kognitiv asoslarini va uning til innovatsiyasidagi rolini o'rgangan bo'lsa, R.Langaker grammatik tuzilish va leksik ma'noning kognitiv jihatlarini tushunish uchun keng qamrovli asosni taqdim etganlar. J.Baybi tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlar til evolyutsiyasini tushunish uchun foydalanishga asoslangan modellarning ahamiyatini ta'kidlab, muntazam o'zaro ta'sir va kognitiv jarayonlar leksik innovatsiyalarning asosiy omillari ekanligini ko'rsatib bermoqda. Bu izlanishlar birgalikda kognitiv mexanizmlar, madaniy amaliyotlar va til rivojlanishidagi kommunikativ ehtiyojlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni ko'rsatib, yangi so'z va ma'nolarning paydo bo'lishining ko'p qirrali manzarasini yaratadi deyishimiz mumkin.

METODOLOGIYA

Maqolaning nutq aktlari orqali yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga bag'ishlangan ushbu bo'limi til evolyutsiyasining murakkab dinamikasini o'rganishga mo'ljallangan qat'iy metodologik asos atrofida tuzilgan. Mazkur qismda lingvistik materiallarni tanlash, analitik usullar va hodisani o'rganish uchun qo'llaniladigan nazariy yondashuvlar ko'rsatilgan.

Tadqiqot 20-asr oxiri va 21-asr boshlarini qamrab olgan neologizmlar va nemis so'zlashuv tilidan olingan vaqti-vaqti bilan so'zlardan iborat. Ushbu korpus turli manbalardan olingan



ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, adabiyotlar va gazetalar tahlil qilish uchun boy va xilma-xil lingvistik landshaftni ta'minlaydi. Zamonaviy ijtimoiy va madaniy tendentsiyalarni aks ettiruvchi mashhurlik kasb etgan yoki kundalik suhbatda innovatsion tarzda qo'llanilgan atamalarga alohida e'tibor beriladi.

Tadqiqotda tanlangan leksik elementlarning turli kontekstlarda chastotasi va tarqalishini kuzatish uchun miqdoriy tahlilni birlashtirib, ushbu atamalarning semantik nuanslari va pragmatik funktsiyalarini o'rganish uchun sifatli tahlilni birlashtirgan aralash usullar yondashuvi qo'llaniladi. Bu ikki tomonlama yondashuv yangi leksik birliklarning tilga qanday integratsiyalashuvini, ularning qabul qilinishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tushunish imkonini beradi.

Tadqiqot kognitiv tilshunoslik nazariyasiga, xususan kontseptual metafora nazariyasiga va qolib semantikasiga asoslangan. Ushbu nazariy asoslar yangi leksik elementlarning murakkab ma'nolarni va madaniy murojaatlarni qanday qamrab olishini va ular inson ongida tajribaning kontseptual tashkil etilishiga qanday hissa qo'shishini tushunish uchun kerakli vositalarni taqdim etadi.

Jarayon tahlil korpus tarkibidagi neologizmlar va okkazonalizmlarni aniqlash va turkumlashdan boshlanadi, so'ngra ularning kelib chiqishi, qo'llanish shakllari va ular paydo bo'lgan kontekstlarni o'rganiladi. Bu metaforik kengaytma, metonimiya va aralashish kabi ushbu atamalarni yaratish va qabul qilish asosidagi kognitiv jarayonlarni ochish uchun batafsil lingvistik tahlilni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish uchun korpus lingvistikasini tahlil qilish uchun dasturiy vositalar, masalan, zarur dasturlar va leksik ma'lumotlar bazalari qo'llaniladi. Bu yangi leksik birliklarning qo'llanilishi va rivojlanishidagi qonuniyatlarni, shuningdek, ularning kengroq lingvistik va kognitiv tendentsiyalarga aloqadorligini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu metodologik asos til o'zgarishining kognitiv va madaniy o'lchovlari haqida tushuncha beradigan nutq aktlarining lingvistik innovatsiyadagi rolini chuqur o'rganish uchun manba yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot lingvistik innovatsiyalarning jonli dinamikasini aks ettiruvchi nemis tilidagi so'zlashuv tili korpusidagi neologizmlar va kazarizmlarning muhim doirasini aniqladi. Turli xil ijtimoiy, madaniy va texnologik ta'sirlardan paydo bo'lgan bu yangi leksik birliklar tilning zamonaviy voqelikka moslashuv reaksiyasini namoyish etadi.

Aniqlangan asosiy neologizmlar va okkazonalizmlar:

Turli xil neologizmlar katalogiga kiritilgan bo'lib, ularning aksariyati raqamli madaniyat, ekologik harakatlar va global sog'liq muammolaridan kelib chiqqan bo'lib, ularning hozirgi ijtimoiy-siyosiy va ekologik nutqlarda ildiz otganligini ko'rsatadi.

Ta'kidlangan okkasionalizmlarga muayyan voqealar, personajlar yoki ommabop ommaviy axborot vositalaridan kelib chiqqan so'zlar kiradi va bu atamalarning leksikadagi vaqtinchalik, ammo ta'sirchanligini ta'kidlaydi.

Chastotalar tahlili turli media platformalarida ma'lum neologizmlar va okkazializmlarning sezilarli darajada ko'payishini aniqladi, bu ularning keng tarqalgan qabul qilinishi va kundalik tilga integratsiyalashuvini ko'rsatdi. Tarqatish usullari ushbu atamalarni turli yosh guruhlari va ijtimoiy demografik guruhlarda qo'llashda sezilarli farq borligini ko'rsatdi, bu til innovatsiyasi jamiyatning turli qatlamlariga kirib borishining nozik usullarini aks ettiradi. Bunday natija lingvistik innovatsiyalar va jamiyatdagi o'zgarishlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ta'kidlab, yangi leksik birliklar murakkab zamonaviy tajriba va hissiyotlarni qanday qamrab olishini ko'rsatib turibdi.

1-jadval. Neologizmlar

Neologizm	Ma'nosi	Kelib chiqirish	Qo'llanilishi
<i>Techlish</i>	Nemis tilida inglizcha texnik atamalardan foydalanish	Ingliz texnologiya tili	"Das Meeting war total <i>techlish</i> , kaum zu verstehen."
<i>Klimajugend</i>	Iqlim muammolaridan xabardor yoshlar	Ekologik faollik	"Die <i>Klimajugend</i> organisiert wieder einen Marsch."

2-jadval. Okkazionalizmlar

Okkazionalizm	Ma'nosi	Kontekst	Qo'llanilishi
<i>Coronakrise</i>	Koronavirus pandemiyasi sabab bo'lgan inqiroz	COVID-19 pandemiyasi	"Während der <i>Coronakrise</i> blieben viele zu Hause."
<i>Brexit-Chaos</i>	Breksit natijasida yuzaga kelgan tartibsizlik	Breksit	"Das <i>Brexit-Chaos</i> hat viele Unternehmen verunsichert."

Ushbu atamalarning paydo bo'lishi va qabul qilinishiga global voqealar, texnologik taraqqiyot va madaniy siljishlar ta'sir ko'rsatadi. "Techlish" kabi neologizmlar nemis tilida so'zlashuvchi kontekstlarda texnologiya sektorida ingliz tilining o'sib borayotgan ta'sirini aks ettiradi. "Coronakrise" kabi okkasionalizmlar murakkab hodisalarni ixcham shakllarda qamrab olgan muhim ijtimoiy voqealardan kelib chiqadi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, lingvistik innovatsiyalar nafaqat kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi, balki jamoaviy tajribalarni aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy funksiyani ham bajaradi.

Ushbu tizimli yondashuv til, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirga e'tibor qaratgan holda, muayyan tadqiqot

ma'lumotlariga kirishsiz lingvistik hodisalarni qanday tahlil qilishni ko'rsatadi.

Metaforik kengayish, metonimiya va qorishmaning kognitiv jarayonlari leksik innovatsiyalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi, rivojlanayotgan madaniy va ijtimoiy kontekstlarni aks ettiruvchi hamda moslashuvchi yangi ma'nolarni yaratishga yordam beradi. Metaforik kengaytma tanish atamalarini yangi, ko'pincha mavhum usullarda qo'llash imkonini beradi, tilni yanada yangi ma'nolar bilan boyitadi. Metonimiya boshqa konsepsiyani qo'llash uchun tegishli atamadan foydalanib, lingvistik tejamkorlikni qo'llaydi va yangi assotsiatsiyalarni rivojlantiradi. Aralash so'zlar yoki tushunchalar elementlarini birlashtirib, yangi atamalar hosil qiladi, bu esa lingvistik yaratuvchanlikning cheksiz tabiatini namoyish etadi. Bu jarayonlar nafaqat inson bilishining dinamikligini, balki til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi, lingvistik innovatsiyalar o'zgaruvchan voqelik va jamoaviy tajribalarni qanday qamrab olishini ta'kidlaydi.

